



# VATANPARVAR

**KUCHIMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!**

● Gazeta: **Vatanparvar** dan chiqa boshlagan ● 2024-yil 9-fevral, №6 (3068)



**4-5** TEZKORLIK, ANIQLIK,  
HAMJIHATLIK

**6** BILIM VA KO'NIKMA  
SINVI

**10-11** AMIR  
ALISHER

**18** "ARMONLI ORZUM  
USHALDI"

**20** VATANPARVARLIKKA  
CHORLADI

## KUCHIMIZ, QUDRATIMIZ HUR VATAN BILAN!



**IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI**

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv\_vatanparvar\_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya



# MILLIY HARBIY MEROSIMIZ — VATANPARVARLIK TARBIYASINING POYDEVORI

Xalqimizning boy tarixida jahon harbiy san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk sarkardalar – Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur singari ajdodlarimizning qo'shinlarida mavjud bo'lgan harbiy an'analar alohida ahamiyatga ega.



Iste'fodagi general-mayor  
Firuz USMANOV,  
Qurolli Kuchlar Harbiy meros  
va zamonaviy tadqiqotlar  
instituti Milliy harbiy merosni  
o'rganish markazi  
katta ilmiy xodimi,  
dotsent



Ular tomonidan janglarda qozonilgan g'alaba birinchi navbatda, qo'shinning yuqori jangovar ruhi va o'z qo'mondoniga cheksiz sadoqati evaziga erishilgan. Jangchilarning matonati va jasorati tufayli janglardagi g'alabalar bilan birga yurishlarning harbiy-strategik va siyosiy maqsadlariga ham erishilgan.

Aytish joizki, buyuk ajdodlarimizning siyosiy va sarkardalik faoliyati barcha davrlarda tarixchilar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganib borilgan. Masalan, Yevropada mashhur tarixchilar – E. Gibbon, Jan-Pol Ru, G. Veber, F. Shlosser va boshqalar o'z asarlarida Amir Temurni davlat arbobi sifatida yaqqol ko'rsatib, uning yirik harbiy yurishlarini tasvirlab berganlar. XIX asr rus olimlari – V. Bartold, A. Yakubovskiy, M. Ivanin va boshqalar sohibqironning hayoti va sarkardalik faoliyatini yoritganlar. Lekin ular ajdodlarimizning faoliyatini bir tomonlama – chor Rossiyasi manfaatlaridan kelib chiqqan holda baholashgan.

Sobiq Ittifoq davrida esa buyuk ajdodlarimizning faoliyati salbiy nuqtayi nazardan yoritilgan bo'lib, ularning strategiya va taktikasi, hatto oliy harbiy ta'lim muassasalarida ham deyarli o'rganilmagan edi.

Milliy armiyamiz tashkil etilishi bilan xalqimizning asl tarixini tiklash va chuqur o'rganish, harbiy xizmatchilarni yurtimiz ozodligi yo'lida buyuk qahramonlik va fidoyilik ko'rsatgan ajdodlarimizning boy merosiga asoslangan holda tarbiyalash eng dolzarb va muhim vazifalardan biriga aylandi.

Ushbu vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida keng ko'lamli ishlar boshlandi. Qadimgi davrdagi buyuk ajdodlarimiz – massagetlar malikasi To'maris, Shiroq va Spitamen qahramonliklari, o'rta asrlardagi buyuk sarkardalarimiz – Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Shohrux Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi qahramonlarni o'rganish, tadqiq etish va ommalashtirish birinchi navbatdagi maqsad bo'ldi. Yoshlarni Vatanga muhabbat, yuksak harbiy-vatanparvarlik va o'z xalqiga fidoyilik

ruhida tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida amalga oshirilgan bu murakkab ishda akademiklar – E.V. Rtveladze, G.A. Pugachenkova, R.G. Mukminova; tarixchi olimlar – R. Alimov, O. Bo'riyev, D. Yusupova, A. O'rinboevning xizmatlari katta.

Akademik B. Ahmedovning Amir Temur harbiy san'ati, yurishlari, ularning natijalari va o'sha davrdagi harbiy-siyosiy vaziyatga ta'sirini o'rganish borasidagi ulkan ishlari alohida e'tiborga loyiqdir. X. Dadaboyevning "Amir Temurning harbiy mahorati" asari ham diqqatga sazovordir. Mustaqillikning birinchi yillaridayoq bu tarixchi olimlarning buyuk ajdodlarimizning keng qirrali faoliyatini aks ettiruvchi salmoqli asarlari nashr etildi.

Shu bilan bir vaqtda qo'shinlarda harbiy xizmatchilarning barqaror axloqiy-ruhiy holatini mustahkamlash, ularda yuksak vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Qisqa vaqt ichida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi ishlab chiqildi, harbiy qismlar uchun ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik bo'yicha yangi dasturlar va o'quv qo'llanmalar, darsliklar nashr qilindi.

Ushbu muhim ishlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilgani 2000-yil avgust oyida Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida diniy ekstremistik xalqaro terrorchi guruhlar jangarilariga qarshi janglarda harbiy xizmatchilarimiz ko'rsatgan fidoyiliklarida o'z tasdig'ini topdi.

**Boy tariximiz, buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish – barqaror axloqiy-ruhiy holat va yuqori jangovar ruhni mustahkamlash asosidir. Bunda milliy harbiy merosimizni o'rganish va tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqish muhimdir.** Vaholanki, yurtimizning tarixiy o'tmishi, buyuk sarkardalarimiz bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish uchun **g'urur**

**mavzusi – buyuk ajdodlarimizning harbiy merosini, jahon harbiy san'atiga qo'shgan hissalarini yaxshi bilish zarur.**

Bu muhim va dolzarb muammolarga so'nggi 5-6 yil davomida davlatimiz rahbari tomonidan katta e'tibor qaratilyapti.

Yangi O'zbekiston sharoitida buyuk tariximizni chuqur o'rganish, yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yurt ozodligi yo'lida mislsiz qahramonlik namunalari ko'rsatgan asl farzandlar jasoratiga tayanish, ajdodlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib vorislar bo'lishga intilish tuyg'ularini mustahkamlashdagi ishlar yanada yuqori bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-dekabrda qabul qilingan "Qurolli Kuchlar tizimida harbiy fanni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti tashkil etilishi bu ishlarni ilmiy asosda va tizimli amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan muhim omil bo'ldi.

Institutning asosiy vazifalaridan biri sifatida chuqur, fundamental tadqiqotlarga asoslangan, buyuk ajdodlarimizning boy milliy harbiy merosini, jangovar strategiya va taktikadagi boshqaruv va harbiy rahbarlik mahoratini o'rganish va shu sohada tadqiqotlarni olib borish belgilangan. Bu vazifani amalga oshirish institutning Milliy harbiy merosni o'rganish markazi zimmasiga yuklangan. Institut tarkibida mazkur markazning tashkil etilgani Prezidentimiz tomonidan buyuk ajdodlarimizning milliy harbiy merosini o'rganishga katta ahamiyat berayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan topshiriqlarning ijrosi doirasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida **Milliy iftixor va harbiy-vatanparvarlik kafedrasi** tashkil etilib, muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Kafedrada

kursantlar uchun yangi o'quv dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, o'qituvchilar ularda mustahkam axloqiy-ruhiy holat va yuqori jangovar ruhni shakllantirish, shuningdek shaxsiy tarkibning xulq-atvori va harbiy faoliyatining samaradorlik darajasini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqda.

Shu yilning 12-yanvar kuni bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqida Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev milliy armiyamizni yanada rivojlantirish va mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, globallashuv jarayonida odamlar, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o'ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini alohida ta'kidlab, "Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur" deya ko'rsatma berdilar.

Hozirgi kunda markaz xodimlari mamlakatimizning yetakchi ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda "Milliy harbiy merosni o'rganishni rivojlantirish konsepsiyasi"ni ishlab chiqish, barcha ta'lim muassasalari uchun ajdodlarimizning harbiy merosini o'rganish bo'yicha o'quv dasturlarini yaratish yo'lida keng ko'lamli ishlarni olib bormoqda.

Xulosa o'rinda aytish joizki, Yurtboshimiz tomonidan qo'yilgan vazifalar harbiy tarixchilar oldida chuqur izlanishlar, milliy harbiy merosimizni o'rganish va yoshlar bilan harbiy-vatanparvarlik ishlari borasidagi dasturilamal bo'lib xizmat qiladi, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Shubhasiz, boy tariximizning ajralmas qismi bo'lgan milliy harbiy merosni chuqur o'rganish yoshlarimizni, navqiron avlodni "Xalq va armiya – bir tan-u bir jon" shiori ostida harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda belgilangan maqsadlarimizga erishishimizni ta'minlaydi.



## Avlodlar uchrashuvi



Muallif suratga olgan

# XALQ VA ARMIYA — BIR TAN-U BIR JON!

Moziyga qarab ish ko'rmog' xayrlidir, degan purma'no iborani eshitgansiz. Buning tag zamirida ajdodlarimizning o'rnak bo'ladigan xayrli amallaridan ibrat olish va umr davomida duch kelishimiz mumkin bo'lgan to'siqlardan mardonavor o'tish ma'nosi mujassam.

Yurtimiz bo'ylab o'tkazib kelinayotgan uch avlod uchrashuvlari ayni shu maqsadni ko'zlaydi. O'sib kelayotgan yosh avlodga zamondosh bo'lgan nuroniylarning bosib o'tgan umr yo'llari, Vatan ravnaqi yo'lida qilgan xayrli amallari hayotiy misollar orqali yetkazilmoqda.

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti bilan "Nuroniylar jamg'armasining Toshkent viloyati va Chirchiq shahri bo'limlari hamkorligida o'tkazilgan uch avlod uchrashuvi xuddi shu maqsadda tashkil etildi. Bilim yurtining katta majlislar zalida o'tkazilgan tadbirga mehnat faxriylari, harbiy xizmatchilar, kursantlar va 500 nafardan ortiq turli qatlamdagi yosh qamrab olindi.

– Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida amalga oshirayotgan ishlarimiz tanqidiy va tahliliy nuqtayi nazardan ko'rib chiqildi va oldimizga bir qancha vazifalar qo'yildi, – deydi "Nuroniylar jamg'armasining Toshkent viloyati bo'limi raisi Abdusamad Nosirov. – Tan olishimiz kerakki, bu boradagi ishlarni biroz bo'shashtirib qo'yganimiz rost. Endi viloyatning 22 ta tuman, shahar jamg'arma raislari bilan yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda yangicha yondashuv bilan ishlash kerakligiga kelishib oldik.

Bugungi o'tkazilgan uchrashuv turli ma'ruzalardan xoli tarzda o'tdi. Aslida va'zxonlik orqali biror natijaga erishib bo'lmasligini barchamiz juda yaxshi bilamiz. Shuning uchun ular bilan rasmiyatchilikdan qochgan holda, samimiy va dildan suhbat qilishga harakat qildik. Ularni qiziqtirgan savollarga javob berish orqali ongidagi bo'shliqni Vatanga sadoqat tuyg'usi bilan to'ldirishga harakat qildik. Yaqinda "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasiga 50 nafar yoshni olib bordik va har bir yoshga bir nuroniyni biriktirib muzeyni tomosha qildik. Faxriylar yoshlarga o'tmishdagi qiyinchiliklar, bugunning shukronasi va ertamiz bugunimizdan ham yaxshiroq bo'lishi ularning qo'lida ekanini tushuntirdi. Buning uchun yot g'oyalarga berilmasdan, ilmi bo'lib, vaqtning qadriga yetish kerakligi misollar orqali uqtirildi. Toshkent viloyatining o'zida 300 mingdan ortiq nuroniylar borligini inobatga olsak, yoshlar tarbiyasidagi o'rimiz beqiyos. Shunday ekan, bor kuch-g'ayratimizni ertamiz egalari bo'lgan yoshlarning kelajagi uchun safarbar etamiz.

– Toshkent viloyatining Chirchiq shahri, Qibray va Oqqo'rg'on tumanlaridagi 34 mahalla fuqarolar yig'inidan jami 10 000 nafar yosh Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtiga biriktirilgan. Hozirgi kunda bilim yurtidan 34 ta



targ'ibot-tashviqot guruhi tuzilib, har bir mahallada uzviy faoliyat olib boryapti, – deydi polkovnik Baxtiyor Pardayev. – Guruh a'zolari tomonidan har bir yoshning uyiga borib, yashash sharoiti, mavjud muammolari, qaysi kasbga qiziqishi o'rganilmoqda. Bundan tashqari, "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi, "Jinoyatga jazo muqarrar, jinoyat jazosiz qolmaydi" mavzusida suhbatlar, yot g'oyalarga qarshi kurashish maqsadida diniy qo'mita vakillari, psixologlar va tegishli mutaxassislarini jalb qilgan holda profilaktik davra suhbatlari o'tkazib kelinmoqda. Yoshlarni kasbga yo'naltirish maqsadida "Ishga marhamat" monomarkazlariga jalb qilish, bilim yurtida faoliyat ko'rsatayotgan "Radioelektronika" to'garagida o'qitish, o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasida chilangarlik va boshqa turdagi hunar o'rgatib, kelgusida ish bilan ta'minlashni o'z oldimizga maqsad qilib olganmiz.

Tadbirida so'z olganlar yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, ulardan unumli foydalanish zarurligi haqida ma'lumotlar berib o'tdi. Jahon

arenalarida yuqori natijalarni egallab kelayotgan paralimpiyachi yoshlar so'zga chiqib, to'rt muchasi sog'lom bo'la turib, vaqtni zoye ketkazmaslik kerakligi, harakat qilinsa, imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, har qanday cho'qqini zabt etishi mumkinligini o'zlari misolida tushuntirib berishdi.

Uchrashuv bilim yurtining o'quv xonalarida kursantlarning kundalik hayoti bilan tanishish orqali davom etdi. Turli yo'nalishlar bo'yicha jihozlangan o'quv xonalarini tashrif buyurgan yoshlarda katta taassurot qoldirdi, deya bemalol ayta olamiz. Chunki tadbir so'ngida mudofaa ishlari bo'limi vakillariga yuzlangan yoshlar harbiy xizmatchi bo'lish uchun kerak bo'ladigan hujjatlarning ro'yxatini so'rab, murojaat qilganini kuzatdik. Demakki, o'tkazilgan uchrashuv besamar ketmadi. Yuqori sinfda ta'lim olishiga qaramay, hali biror kasbni tanlab ulgurmagani o'quvchilarning shu yerning o'zida qaror qabul qilishi kishini quvontiradi.

Sherzod SHARIPOV,  
"Vatanparvar"







Tarixdan ma'lumki, jangda qo'shin soni emas, uning tezkor harakatlanishi, jangovar tayyorgarligi va jangchilarning mahorati muhim ahamiyat kasb etgan. Buyuk sarkardalarning faoliyatida ko'plab kuzatilgan bunday jihatlar asrlar o'tishi bilan o'z qimmatini yo'qotmay kelyapti va ular zamon talabidan kelib chiqqan holda taktik uslublar bilan yanada boyitib borilmoqda. Bunday taktik uslublar bugungi kunda brigada, batalyon yoki boshqa bo'linmalar miqyosidagi mashg'ulotlarda sinovdan o'tkazilib, amaliy ko'nikmalar orqali ko'zlangan maqsadlarga erishilishi ta'minlanadi.



**TEZKORLIK, ANIQLIK,**

Markaziy harbiy okrug "Forish" tog' poligonida o'tkazilgan batalyon taktik o'quvi misolida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jangovar shaylikning qay darajada ekanini kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldik. Tong g'ira-shirasida yangragan yig'in trevogasi bilan Vatan himoyachilari oyoqqa qalqdi. Sanoqli daqiqalar ichida batalyon shaxsiy tarkibi o'ziga tegishli qurollar va jangovar harbiy texnikalar bilan "Forish" tog' poligonining o'quv nuqtalariga qarab yo'l oldi. Manzilga yetib borish jarayonida dozor va oldingi chiziqdagi yetakchi kuchlar qo'qqisdan uyushtirilgan hujumlarni bartaraf etish amaliyoti sinovdan o'tkazildi. Bu harakatlar davomida aloqachilar, kimyoviy hujumdan

himoyalanih hamda razvedkachi bo'linmalar komandirlarining tezkor qarorlari natijasida oldinga qo'yilgan topshiriqlar a'lo darajada bajarildi. Shaxsiy tarkib harbiy texnikalar kolonnasi bilan harakatlanishda tezkorlik, aniqlik va hamjihatlik me'yorlariga amal qilishdan tashqari, belgilangan hududda niqoblanish va kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda davlat chegarasini buzib kirgan shartli dushmanga qarshi ikki bosqichli zarba berish bo'yicha topshiriqlar oldi.

Belgilangan hududda har bir vzvod va bo'linma komandirlari xizmat turidan kelib chiqqan holda joylashtirildi. Ko'chma qo'mondonlik punkti, front orti ta'minoti, aloqachilar, kimyoviy hujumdan himoyalanih,

axloqiy-ruhiy ta'minot, havo hujumidan mudofaa, razvedka-qidiruv guruhi, texnik va tibbiy yordam ko'rsatish xizmati, tankchilar hamda motoo'qchilar vzvodi jang maydonidagi muhandislik tamoyillari asosida niqoblandi. Vzvod va bo'linmalarining harakatlanish nuqtalari belgilandi. Joylashuv hamda harakatlanish chiziqlari bo'yicha mutaxassislarining ko'rsatmalari olindi.

Mashg'ulotda qatnashgan harbiy xizmatchilar bir vaqtning o'zida tog'li, dala, shahar va cho'l sharoitidagi aholi yashash hududlarida shartli dushmanni

yo'q qilish bo'yicha topshiriqlarni bajardilar. Uchuvchisiz uchish apparatida olingan razvedka ma'lumotlariga ko'ra, shartli dushman joylashgan hududga tanklardan va minomyot batareyalaridan zarbalar berildi. Merganlar va jangovar mashinalar ko'magidagi tozalash guruhlarini hujum qilingan hududda o'zlariga tegishli ishlarni oxiriga yetkazdi.

O'quv-uslubiy mashg'ulotni Markaziy harbiy okrug boshqaruv apparati ofitserlari kuzatib bordi. Jarayondagi harakatlar bo'yicha







# HAMJIHATLIK

taklif va mulohazalar bildirildi. Mashg'ulot o'quv-uslubiy jihatdan bir necha yangicha harakatlarni o'z ichiga qamrab olgani bilan ajralib turdi. Quyuq tuman sharoitiga qaramay, harbiy xizmatchilar belgilangan nishonlarni yo'q qilishda o'z mahoratlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Vazifalarni bajarishida nishonga yo'naltiruvchi mutaxassislar hamda razvedka-qidiruv guruhining aniq va tezkor yetkazgan ma'lumotlariga tayanildi. Komandirlar tomonidan qo'yilgan har bir topshiriq professional tarzda bajarildi.

Jangchi jangda maydon tanlamaydi, degan ibora mana shunday mashg'ulotlar davomida haqiqiy ma'noda o'z isbotini topadi. Harbiy xizmatchilar qayerda bo'lmasin, suvdami, cho'ldami, tepalikdami, tog' -u toshdami, aholi yashash hududidami hamma-hammasiga moslashib keta olishlarini o'z harakatlari orqali isbotladi. Amalga oshirilgan harakatlar davomida tezkorlik, aniqlik, hamjihatlik sinovidan tashqari xavfsizlik qoidalariga ham qat'iy rioya qilindi va "Forish" tog' poligonida o'tkazilgan batalyon taktik o'quvi jarayonida bularning barchasi mujassamlashib, ko'zlangan maqsadga erishildi.

## Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Behruz OLIMOV:

– Bugungi mashg'ulot davomida tank vzvodining har bir ekipajiga shartli dushmanning harakatdagi texnikalarini aniq nishonga olish topshirig'i qo'yildi. Guvohi bo'lganingizdek, bizning ekipajimiz harakatlangan holda o't ochish mashqini bajardi. Qolgan uchta ekipaj esa maxsus xandaqlarda niqoblanish ko'rinishi ostida vazifani amalga oshirdi. Har ikki holatda ham qarshi hujumdan himoyalanih, jangovar uchuvchisiz uchish apparatlari ta'qibiga tushib qolmaslik, zudlik bilan boshqa hududga o'tish kabi muhim jihatlar e'tiborga olindi. Xalqaro armiya o'yinlarida boy tajriba to'plagan katta serjant Karim Urinov hamda III darajali serjant Islomjon Sobirov bilan bir yildan buyon faoliyat olib boraman. Ulardan o'rganganlarim mashg'ulotlarda ancha qo'l kelyapti.

## Leytenant Azamat OLIMOV, harbiy psixolog:

– Dunyoda inson psixologiyasidek nozik jihat bo'lmas kerak. Tashqi muhit, atrofda bo'layotgan voqealar ta'siri ostida inson psixologiyasida har qanday o'zgarishni kuzatish mumkin. Shuning

uchun bugungi kun jang maydonini axloqiy-ruhiy ta'minot xonasisiz tasavvur etish qiyin. Ko'rib turganingizdek, batalyon axloqiy-ruhiy ta'minot xonasi dala sharoitiga moslab, chodir ichida tashkil etilgan. Bu yerda har bir harbiy xizmatchining mashg'ulotdan oldingi ruhiy holati barqarorlashtiriladi va mashg'ulotdan keyin kuzatiladigan zo'riqlarga belgilangan dasturlar asosida barham beriladi.

Har safar harbiy xizmatchilar ishtirokidagi o'quv-jangovar mashg'ulotlarini kuzatar ekanmiz, mamlakatimizning himoya qudrati asl holicha ko'z oldimizda gavdalanadi.

Ular uchun mashg'ulotlarning qayerda, qanday muhitda, hududda yoki ob-havo sharoitida o'tkazilishining farqi yo'q. Xuddi odatdagidek bajaraverishadi. Bobur Usmanov, Dilshod Mingboyeov, Azamat Olimov, Karim Urinov, Islomjon Sobirov, Behruz Olimov. Ularning biri ofitser, biri serjant va oddiy askar (kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi). Lavozimi va unvonidan qat'i nazar, muhim vaziyatda bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishga o'rganib ketishgan.

**Asror RO'ZIBOYEV,**  
"Vatanparvar"







## BILIM VA KO'NIKMA SINIVI

**Harbiy xizmatchilarning yil davomida olgan nazariy va amaliy ko'nikmalari, orttirgan tajribalari mashg'ulotlarda o'z aksini topadi. O'z o'rnida jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarining intensivligi qo'shinlarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi.**



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug Muborak garnizonidagi harbiy qismda nazorat tekshiruvi o'tkazildi. Dastlab harbiy xizmatchilarning sohaga doir bilimlari test savollari orqali sinaldi. Shu kuni o'g'lonlar belgilangan vaqt asosida uzoq va qisqa masofaga yugurish, turnikda tortilish, jangovar qurollar bilan turli harakatlarni bajarish, pichoq uloqtirish, kuchlilik va chaqqonlik sifatlarini tekshirishga qaratilgan jismoniy tayyorgarlik sinovlari, shuningdek kasbiy tayyorgarlik bo'yicha me'yorlarni bajarishdi.

Shundan so'ng jangovar texnikalar va harbiy xizmatchilar shay holatga keltirilib, kolonna tarzida "Muborak" dala-o'quv maydoni tomon marshni amalga oshirdi. Poligon hududida o'tkazilgan dastlabki amaliy mashg'ulotlarda janub o'g'lonlari kichik va katta kalibrli qurollardan harakatlangan va turli pozitsiyalarni egallagan holda, o'ng va chap qo'lda paydo bo'luvchi nishonlarni yakson qildi.

Qo'shinlarning yuksak jangovar tayyorgarligi harbiy texnikalarni mohirlik bilan boshqara olishi, tog'-u cho'lda tezkor va talafotsiz jang olib borishi bilan belgilanadi. Navbatdagi mashg'ulotlarda tankchilar vztvodining bu boradagi mahoratlari sinovdan o'tkazildi. Ekipajlar o'rtasida uzviy hamkorlikni ta'minlagan holda minalashtirilgan maydondan tanklarni talafotsiz olib o'tgan harbiy xizmatchilar professionallik darajasini amalda ko'rsata oldi.



Kutilmaganda sharros quygan yomg'ir Vatan himoyasidek sharaflig'iga bel bog'lagan bu mard yigitlarni bir lahzaga bo'lsin, qo'yilgan topshiriqlarni a'lo darajada bajarishlariga to'sqinlik qila olmadi.

Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini tungi vaqtda o'tkazishga ham alohida e'tibor qaratilib, bu orqali bo'linmalarga ko'rish imkoniyati cheklangan sharoitda qo'yilgan o'quv-jangovar topshiriqlarning samarali bajarilishiga erishilyapti.

Aytish kerakki, bugun yurt posbonlari jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash uchun yuksak jangovar ruhni shakllantirish hamda kasbiy mahoratlarini yanada yuksaltirish borasida bor kuch va g'ayratlarini ishga solib, sadoqat bilan xizmat qilib kelmoqda.

**Katta leytenant Akbar KAMOLOV,  
Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug  
matbuot xizmati boshlig'i**





## Zamonamiz qahramonlari

Bugun harbiy xizmatchilardan harbiy va dunyoviy bilimlarni puxta egallash, o'z nomiga har tomonlama munosib bo'lish talab etilmoqda. Zero armiyaning kuch-qudrati uning saflarida xizmat qilayotgan insonlarga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shu bois harbiy xizmatchilar doimiy ravishda bilim va ko'nikmalarini boyitib borishi zarur. Bu borada o'tkazilayotgan ko'rik-tanlovlar va musobaqalarning ahamiyati beqiyos.

2023-yilning dekabr oyida Qurolli Kuchlar miqyosida "Eng ilg'or kasb ustasi" unvoni uchun ko'rik-tanlov o'tkazilgan edi. Vatan himoyachilari uchun haqiqiy ma'noda mardlar maydoni, chiniqish va mahorat maktabi bo'lgan mazkur bellashuv vazirliklar va kuch tuzilmalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, harbiy xizmatchilarning jangovar, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikdan bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish, shuningdek Vatanga sadoqatini yanada mustahkamlash maqsadida tashkil etildi.

Eng asosiysi, tanlov o'z kasbini sevadigan, fidoyi va peshqadam harbiy xizmatchilarni yuzaga chiqargani bilan ahamiyatli bo'ldi. Yodingizda bo'lsa, Qurolli Kuchlar tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Mudofaa vazirligi markaziy apparatida o'tkazilgan bayram tadbirida ko'rik-tanlov g'oliblari nomi e'lon qilingan va taqdirlangan edi. Gazetamizning mazkur sonida biz bu o'g'lonlar haqida ma'lumot berishni lozim topdik.

## ULAR ENG ILG'OR HARBIY XIZMATCHILAR



**MARDONAVOR RUH ILA**

Tanlov o'z nomi bilan tanlov. Unda eng ilg'orlarga muvaffaqiyat yor bo'ladi. Podpolkovnik Valijon Sattorov shunday peshqadam harbiy xizmatchilardan biri. U har doimgidan ham shiddatli kechgan "Eng ilg'or kasb ustasi" ko'rik-tanlovida munosib ishtirok etdi va "Eng ilg'or brigada komandiri" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

– Yurt tinchligi va osoyishtaligini saqlash shu diyorda unib-o'sgan har bir o'g'lonning muqaddas burchi, deb bilaman. Yuragim to'ridan joy olgan burch tuyg'usi, Vatanga muhabbat hissi meni har doim shu yurt uchun mardonavor ishlar qilishga undaydi, – deydi qahramonimiz. – O'tgan kunlarga nazar tashlar ekanman, ko'nglimda ajib hislar jo'sh ura boshlaydi. Zero muborak istiqloq sabab armiya va harbiy xizmatning nufuzi oshdi, harbiylik sharafli kasblardan biriga aylandi. Bugun zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlangan, milliy qadriyatlarimiz va ajdodlarimizning jangovar an'alariga tayangan milliy armiyamiz bor, uning safida esa yuksak jismoniy tayyorgarlik, intellektual salohiyatga, ruhiy-ma'naviy fazilatlariga ega bo'lgan Vatan himoyachilari xizmat qilyapti. Bizga shijoat, mardlik, jasorat, yurt uchun jon kuydirish ajdodlarimizdan meros. Vatan biz uchun har narsadan qadrlidi. Uning tinchligi va osoyishtaligini saqlash uchun jonimizni ham ayamaymiz. Chunki biz yurtning ishongan tog'i, qo'rg'onlarimiz. Albatta, bu ishonch harbiy xizmatchilarga kuch bag'ishlaydi. Doim mardonavor ruh bilan faqat olg'a intilishga undaydi.



**MUVAFFAQIYAT – TAJRIBA MAHSULI**

Insonning maqsad sari olg'a qadam tashlashida, mavjud qiyinchilik va to'siqlarni mardonavor yengib o'tishida, hayot zarbalaridan esankiramay, o'z yo'lida davom etishida iroda, matonat, shijoat muhim ahamiyat kasb etadi. Mayor Bektemir To'ychibayevni tanigan-bilganlar uning shu fazilatlar egasi ekanini ta'kidlaydi. Jamoadoshlari esa zamon bilan hamnafas, tajribali va malakali harbiy xizmatchi sifatida hurmat qiladi. Demak, o'z sohasining bilimdoni bo'lgan tajribali ofitserning "Eng ilg'or kasb ustasi" ko'rik-tanlovida ishtirok etishi va "Eng ilg'or batalyon komandiri" e'tirofiga sazovor bo'lgani bejiz emas.

– Ustozlarimning, yaqinlarimning har bir erishgan yutug'imdan quvonishi meni yanada ruhlantiradi, – deydi mayor Bektemir To'ychibayev. – Zotan, hayotda, harbiy xizmatda o'rin topishimda mana shu aziz insonlarning bemisl hissasi bor. Shuning uchun ham xizmat davomida qanday yutuqqa erishsam, u xoh katta, xoh kichik bo'lsin, albatta, ustozlarimni yodga olaman. Insoniy fazilatlarini, sadoqati bilan mehrimni qozongan, har qanday vaziyatda ham to'g'ri xulosa chiqara olishni o'rgatgan, doim fidoyi bo'lishga undagan mehdardiy bu insonlar oldida ta'zimdaman. Men tanlovda erishgan g'alabamni butun jamoamizning yutug'i sifatida qabul qildim. G'oliblikning mas'uliyati yuksak ekanini yaxshi bilaman. Bu ishonch deganidir. Bundan buyon ham ona yurt oldidagi burchimni sharaf bilan o'tashga va'da beraman.



**"JONIM FIDO ONA YURTIMGA"**

Mayor Erkin Quvondiqov "Eng ilg'or kasb ustasi" ko'rik-tanlovining "Eng ilg'or vzvod komandiri" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi. E'tirof etish joizki, uning shu kungacha erishgan muvaffaqiyatlari, a'lo xizmati boshqalarga o'rnak bo'la oladi. Muhimi, u mehnatsevarligi, mardligi va shijoati bilan bugungi kun talablariga javob bera oladigan, zamonaviy, yuksak professional salohiyatga ega harbiy xizmatchi ekanini amalda namoyish qilmoqda.

– Ilg'orlar safida e'tirof etilish ham muvaffaqiyat, – deydi mayor Erkin Quvondiqov. – G'oliblik diplomini katta sahnada qabul qilib olish jarayonida ko'nglimda kechgan tuyg'ularni so'z bilan ta'riflab berolmayman. Gulduros qarsaklar, olqishlardan yanayam ruhlantim. Ha, agar inson chin dildan istasa, intilsa va yana eng asosiysi, kasbini sevsa, oldiga qo'ygan hamma maqsadiga erishadi. Buni o'z hayotim misolida ko'ryapman. To'g'ri, oldinda zabt etilishi lozim bo'lgan hali qancha dovonlar bor. Lekin men bundan cho'chiyotganim yo'q. Chunki qiyinchilik insonni toblaydi va shuning barobarida uni yuksaklikka olib chiqadi. Men hayotimni armiya bilan bog'laganman. Bundan faxrlanaman. Kasbimni yaxshi ko'raman. Shuning uchun harbiylikni hayotim mazmuni deb bilaman.

Ha, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mardlik, fidoyilik, jasorat bizga bobomeros. Ular go'zal tarbiya bilan avloddan avlodga o'tadi. Shundan bo'lsa kerak, qahramon yigitning hayot yo'li nurli, munavvar. Buni har qancha e'tirof etsak arziydi.



**SHARAFLI KASBGA MUHABBAT**

III darajali serjant Abdurasul Tuyg'unovni istiqboli porloq harbiy xizmatchilardan biri, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Uning bugun katta jamoada o'ziga yarasha o'rni bor. Zero kichik komandirlarga armiyamizning tayanchi, deya bejiz yuksak baho berilmaydi. Aynan ular ofitserlarning yaqin ko'makchilari sanaladi. Sharafli kasbga bo'lgan muhabbati sabab hayotini shu soha bilan bog'lagan o'g'lon o'tgan yilni ulkan muvaffaqiyat bilan yakunladi: u "Eng ilg'or serjant" nominatsiyasida g'oliblikka erishdi.

– Bu men uchun kutilgan va kutilmagan voqea bo'ldi, – deydi u hayajonini yashirmay. – Kutganim – musobaqaga astoydil tayyorgarlik ko'rgandim. Albatta, bellashuvdan muddao zafar qozonishdir. Kutilmagani esa raqiblarim ham kuchli bilimiga ega va mahoratli edi. Nomim g'oliblar safida e'lon qilinganida quvonchdan boshim ko'kka yetdi. Har doim ilg'orlar safida bo'lishga intilib kelganman. Mazkur nufuzli tanlovda qatnashishning o'ziyoq kishini ruhlantiradi. Aslida, ushbu ko'rik-tanlov harbiy xizmatchilarning mehnatini yuzaga chiqaradi. Tanlovda ishtirok etib, yana shunga amin bo'ldimki, qalbida buyuk maqsad bilan faqat olg'a harakat qilgan inson albatta maqsadiga erishadi.

**Podpolkovnik  
Gulnora HOJIMURODOVA**





## AGAR HARBIIY MUTAXASSISLIKKA EGA BO'LSA VA ISTASA...

Vatanparvarlik, ona yurtga sadoqat, tinchlik va osoyishtalikni saqlash zamirida inson omili turadi. Mamlakatimizda harbiy sohaga doimiy ravishda jiddiy e'tibor berilayotganining boisi shundan. Sohada o'tkazilgan islohotlar tufayli mamlakatimizda ixcham, harakatchan, zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlangan milliy armiya barpo etildi.



Mutlaqo yangi xizmat turi – safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat joriy etilganiga yigirma yildan oshdi. O'shanda tegishli huquqiy hujjatlarga ko'ra, muddatli harbiy xizmat bir yil etib belgilandi, chaqiruv yiliga bir marta tashkil etiladigan bo'ldi, armiya saflarida kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tash tartibi joriy qilindi. Bu o'zgarishlar o'tgan yillarda mudofaa salohiyatimizni oshirishda muhim omil bo'ldi.

Yaqinda biz Sharqiy harbiy okrugda safarda bo'lib, farg'onalik yoshlar xizmat qilayotgan podpolkovnik Jahongir Usmonov komandirligidagi safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyonida bo'lib qaytdik. Besh yuzga yaqin yosh yigitlik burchini o'tayotgan batalyonda ularning xizmatni o'tash va yashashlari uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdik. Mas'ullarning aytishicha, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmatchilarning 23 o'quv kunida jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari davomiyligi 138 soatni tashkil qilib, o'quv dasturidan o'tochar qurollardan foydalanish, taktika, muhandislik tayyorgarligi, Umumharbiy nizomlar, harbiy topografiya, kimyoviy qurollardan himoya, tibbiy tayyorgarlik va boshqa fanlar o'rin olgan. Bu mashg'ulotlarni talab darajasida o'tkazish uchun o'quv xonalari va harbiy qism hududida barpo etilgan kichik poligon barcha o'quv qurollari va zarur vositalar bilan to'liq jihozlangan.

– Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmatchilarning o'quv yig'ini mashg'ulotlari bir oyga mo'ljallangan bo'lsa-da, u keng qamrovlilik bilan e'tiborga molik. Mazkur xizmat turida yoshlar o'qish va ishdan ajralmagan holda o'z burchlarini ado etishlari mumkin. Bir oyda yigitlar harbiylikning ilk ko'nikmalarini egallash bilan birga, Vatanga xizmat to'g'risida, milliy armiyamizning maqsad va vazifalari xususida yangi fikrga, yangi dunyoqarashga ega bo'lib qaytmoqda. Batalyonda shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holati, huquqiy savodxonligi hamda harbiy intizomini mustahkamlash borasida el orasida hurmat qozongan oqsoqollar va mahalla faollari, ilg'or yoshlar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan hamkorlikda turli uchrashuv

va samimiy muloqot ko'rinishidagi madaniy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirish an'anaga aylangan. Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat yoshlarda ma'naviy-ruhiy va vatanparvarlik sifatlarini, faol hayotiy pozitsiyani, Vatan himoyachilari uchun zarur bo'lgan harbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning asoslaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda, – deydi batalyon komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari mayor G'ayrat Madrahimov. – Davlatimiz rahbarining Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida qo'ygan topshiriqlarini biz ham chuqur tushunib, harbiy jamoamiz bilan birga oldimizdagi vazifa va rejalarimizni belgilab oldik. Unga ko'ra, Farg'ona viloyati tumanlarida, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar bilan uchrashuvlar, ularning harbiy qismimizga tashrif va ekskursiyalarini tashkil qilyapmiz. Bu tadbirlarda ularga harbiy xizmat turlari, Qurolli Kuchlar safida bo'lishning nechog'li sharaft ekanini, harbiy xizmat tartib-qoidalari,

yaratilgan sharoit va imtiyozlar, yigitlik sha'ni va g'ururi, bir so'z bilan aytganda, Vatan himoyasi va himoyachisi bilan bog'liq barcha tushunchalar haqida batafsil ma'lumotlar beryapmiz.

Ma'lumot uchun: tegishli qonunga ko'ra, muddatli harbiy xizmatni o'tashga yaroqli hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo'lmagan, biroq Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi muddatga chaqirilmagan shaxslar safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinadi.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat burchini o'taydigan yigit bir yillik muddatli xizmatni o'tayotgan tengdoshi kabi harbiy guvohnoma oladi. U agar tegishli harbiy mutaxassislikka ega bo'lsa va istasa, Qurolli Kuchlar qo'shinlarida kontrakt asosida xizmat qilishi, oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'qishi mumkin. Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatchi 27 yoshgacha harbiy hisobda bo'lib, 27 yoshga to'lganda Qurolli Kuchlar rezerviga o'tkaziladi.

**Furqat ERGASHEV,**  
"Vatanparvar"



Askarlar davrasida

# VATANNI YETUK O'G'LONLAR ASRAYDI

Posbonlar bilan suhbatlashyapman-u, xayolimni bir e'tirof band etyapti. Ya'ni milliy armiyamiz saflarida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan o'g'lonlarning barchasi ruhan va jismonan baquvvat, aqlan teran, intiluvchan, bir so'z bilan aytganda, yurt koriga yelka tutadigan yigitlar ekaniga amin bo'ldim. Xizmat jarayonida ular yanada kuchga to'lganiga shubha yo'q.

Ularning xizmat davomida egallagan bilim va ko'nikmalari test imtihonlari orqali sinovdan o'tdi. Bu imtihondan yuqori ball olgan posbonlarga esa omad kulib boqishi tayin. Ular oliygozlarga kirish uchun katta tayanch bo'luvchi tavsiyanomaga ega bo'ladi.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi harbiy qismlarda muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar ham jangovar, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, matematika va fizika fani hamda mantiqiy test sinovlaridan o'tdi. Xizmatning so'nggi oylarini o'tayotgan yigitlarning ruhiyati ko'tarinki ekani aniq. Chunki ular xizmatdan so'ng o'ziga xos yangi hayotga qadam qo'yadi. Xizmat davomida qat'iy maqsadga aylangan orzulari tomon intiladilar.

## YURTIM TARAQQIYOTI UCHUN XIZMAT QILAMAN!



Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan Jo'rabek Nabiyeov safdoshlari orasida nazariy va amaliy mashg'ulotlarda oldingi safda ekani, jamoat ishlarida faolligi bilan ajralib turadi. Uning maqsadi – oliygozda tahsil olib, Vatan taraqqiyotiga munosib ulush qo'shish. Bu haqda Jo'rabekning o'zidan eshitamiz.

– Yigitlik burchimni yurtimizning janubiy hududlarida o'tayotganimdan xursandman. Surxondaryoni ko'rishni doim orzu qilardim. Xizmat davomida ko'p narsaga erishdim, ulg'aydim, o'zimga bo'lgan ishonchim ortdi. Safdoshlarim bilan komandirlarimiz boshchiligida harbiy sohaning bilim va ko'nikmalarini egallab kelyapmiz. Bu borada vzvod va guruh komandirlarimdan minnatdorman. Ular sabab nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'zim kutgandan ham ko'proq bilimga ega bo'ldim, yaxshi natijalarni qo'lga kiritdim. Musobaqalarda ishtirok etib, qo'mondonlik tomonidan minnatdorlik oldim, rag'batlantirildim. Erishgan muvaffaqiyatlarimda safdosh do'stlarimning ham katta hissasi bor. Sanjar Urishov, Zuhridin Begimqulov va boshqa do'stlarim bilan askarlik burchimni a'lo darajada o'tashga bel bog'laganmiz. Bir-birimizdan yordam va maslahatimizni ayamaymiz. Muddatli harbiy xizmatdan so'ng Toshkent axborot texnologiyalari universitetida o'qib, dasturchi bo'lmoqchiman.

Harbiy xizmatga qadar sportning erkin kurash turi bilan shug'ullangan Jo'rabekning xobbisi – rasm chizish bilan birga kompyuter texnologiyalarini o'zlashtirish va albatta, yaratuvchanlik ila mamlakatimiz rivojiga salmoqli ulush qo'shish. G'ayratli, qat'iyatli, bilimdon Jo'rabek Nabiyeov kabi o'g'lonlarning el ishonchini oqlashi shubhasiz.



TO'RT O'G'ILNING KENJASI

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Zoirjon Abdurazzoqovning vazifasi – tank mexanik haydovchisi. U xizmat davomida mashg'ulotlarni yaxshi o'zlashtirgan, jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan posbonlardan biri. Vazifasini chin dildan egallagan esa ilkidagi mas'uliyatli burchga sadoqatli ekanidan dalolat. U bilan suhbatlashganimizda, oilasi va yigitlik burchi haqida to'liqlanib gapirib berdi:

– Armiya maktabida toblanib, Vatan himoyachilari safida qad rostlaganimdan xursandman. Harbiy qismda hamma sharoit mujassam. Men kitob mutolaasini yaxshi ko'raman. Bo'sh paytlarimda kitob o'qiyman. Ayniqsa, taniqli adib O'tkir Hoshimov asarlari menga juda yoqadi. Xizmat sirlarini o'zlashtirishimda esa komandirlarim yaqindan yordam berdi. Erishgan muvaffaqiyatlarimda ularning o'rnini katta. Xizmat davomida minnatdorlik va tashakkurnomaga ega bo'ldim. Harbiy xizmat sinovlarini yengib o'tishimda yaqin safdoshlarim Hojiakbar Mirsaidov va Aziz Safarboyev yelkadosh bo'ldi. Ular bilan ajralmas do'stlarga aylandik. Barchamizning oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarimiz bor. Kelajakda ichki ishlar tizimida xizmat qilishni maqsad qilganman. Eng asosiysi, harbiy xizmat bizga Vatanga sadoqat, ota-ona va yaqinlar qadriga yetish, hayot sinovlarini yengish va bardoshli bo'lishni o'rgatdi.

Biz oilada to'rt o'g'il – to'rt bahodirmiz. Men doim akalarim Ilhomjon, Hasanjon va Husanjon kabi oliy ma'lumotli, el xizmatida bo'lishni istayman. Bu borada harbiy xizmat maqsadim tomon dadil intilishimga yo'l ochdi.

Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"

## Topshiriqlar ijrosi amalda



# YOSHLAR BILAN MANZILLI ISHLAR

Bugun mamlakatimizda yoshlar masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Joriy yilning Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili deb e'lon qilinishi bejiz emas. Shu yilning 12-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ham yoshlar masalasiga alohida to'xtalib o'tildi. Mas'ullarga mazkur yo'nalishda bajarilishi lozim bo'lgan bir qator muhim topshiriqlar berildi.

Xususan, belgilangan topshiriqqa muvofiq, to'rt million nafar yosh tegishli vazirliklarga sektorlar kesimida taqsimlanib, Mudofaa vazirligiga bir million yoshni otaliqqa olish, bu ishlarni

respublikamizning 1-sektorlari bilan hamkorlikda amalga oshirish vazifasi yuklatildi.

Belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan mudofaa vazirining tarbiyaviy

va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari rahbarligida vazirlik tizimidagi barcha harbiy qism va muassasalar mansabdor shaxslarining vazifalarini belgilash bo'yicha videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari, hamkor tashkilotlar vakillari va Yoshlar ishlari agentligining harbiy-vatanparvarlik bo'limi boshlig'i Akmal Alimov ishtirok etdi.

Yig'ilishda otaliqqa olingan yoshlar bilan ishlash tartibi aniq belgilab berildi. Jumladan, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ishlarni amalga oshirish, muammoli, uyushmagan, ijtimoiy-huquqiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan manzilli ishlarni tashkil etish, ularni kasb-hunarga o'qitish

va bandligini ta'minlashga ko'maklashish bo'yicha chora-tadbirlar muvofiqashtirib olindi.

Shuningdek, mutasaddi rahbarlarga hududlarda tashkil etilgan shtablarga bir nafardan, har bir birlashtirilgan mahallalarga yoshlar bilan amaliy ishlarni tashkil etish bo'yicha yuqori bilim va salohiyatga ega uch nafardan harbiy xizmatchini birlashtirish bo'yicha vazifalar belgilandi.

Yoshlar ishlari agentligining harbiy-vatanparvarlik bo'limi boshlig'i A. Alimov yoshlar bilan manzilli ishlash bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini bildirib o'tib, bu borada yaqin ko'makchi va namuna bo'layotgan Mudofaa vazirligiga o'z minnatdorligini bildirdi. Shuningdek, yoshlar bilan amalga oshiriladigan ishlarning monitoringini olib borish bo'yicha ishga tushiriladigan elektron platforma bo'yicha ma'lumot berdi.

Katta leytenant  
Islomjon QO'CHQOROV,  
"Vatanparvar"





# AMIR ALISHER

**NIZOMIDDIN MIR ALISHER NAVOIY – BUYUK O‘ZBEK SHOIRI, MUTAFAKKIR, DAVLAT ARBOBI.**

**TAVALLUDI – 1441-YIL 9-FEVRAL. HIROT.**

**BOBOSI – AMIR TEMURNING O‘G‘LI UMARSHAYX BILAN KO‘KALDOSH.**

**OTASI – G‘IYOSIDDIN BAHODIR ABULQOSIM.**

**ONASI – (ISMI NOMA‘LUM) KOBUL AMIRZODALARIDAN SHAYX ABUSAID CHANGNING QIZI.**

**BOLALIGI – SHOHRUX HUKMRONLIGINING SO‘NGGI YILLARIDA KECHGAN.**

**4 YOSHIDA SAVOD CHIQARGAN.**

**9 YOSHIDA “ZAFARNOMA” MUALLIFI SHARAFIDDIN ALI YAZDIY BILAN UCHRASHGAN.**

**15 YOSHIDA SHOIR SIFATIDA TANILGAN.**

**TAXALLUSLARI – NAVOIY, FONIY.**

**ORZUSI – HUSAYN BOYQARONI ADOLATLI VA MA‘RIFATLI HUKMDOR QIYOFASIDA KO‘RISH BO‘LGAN.**

**VAFOTI – 1501-YIL 3-YANVAR. HIROT.**



**TARIXIY MANBALARDA** Alisher Navoiy nomiga “Mir”, “Amir” rutbasi qo‘shib aytiladi. Bu atama Amir Temur, Amir Qozog‘on, Amir Olimxon kabi hukmdorlar va barcha sarkardalari nomiga qo‘shib aytilganini hisobga olsak, ularning hokim bo‘lish bilan birga qo‘shin boshlig‘i, jang san‘ati va harbiy ilmlarning bilimdoni bo‘lganini bilamiz.

“Mir”, “Amir” so‘zlariga o‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday izoh beriladi. Bu so‘zlar arabcha bo‘lib, “hokim”, “hukmdor” ma‘nolarini bildiradi. Temuriylar davrida, keyinchalik Turkiston xonliklarida **“amir” eng yuqori harbiy unvon hisoblanib, lashkarboshi va qo‘shin boshliqlari lavozimi shunday atalgan.**

Bu ma‘lumotlar Alisher Navoiy hokim, qo‘shin boshlig‘i vazifalarini ham bajarganini anglatadi, ammo uning na harbiy bilimlari va na janglardagi ishtiroki va na qo‘shinni boshqargani haqida so‘nggi 100 yillikdagi navoiyshunoslarning biror tadqiqotida uzoq-yuluq ma‘lumotlardan tashqari jiddiyroq gap uchramaydi. Fakt shuki, zamondoshlari tarixchi Mirxond va uning nabirasi Xondamir, Bobur va boshqalar bu ulug‘ zot ismini o‘z asarlarida Nizomiddin Mir (*Amir*) Alisher Navoiy deb yozgan.

**G‘IYOSIDDIN XONDAMIRNING** “Makorim ul-axloq” – “Olijanob xulqlar” asari Alisher Navoiyning buyuk shaxsiyati haqida bo‘lib, zakovati, mehribonligi, kamtarligi, saxiyiligi, hayotidagi g‘aroyib voqealar, davlat tutumidagi ishtiroki xususidagi nodir hikoyalardan tarkib topgan, uning “Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar” – “Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do‘st”, “Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-axyor” – “Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi”, “Dastur ul-vuzaro” – “Vazirlar uchun qo‘llanma” asarlarida ham shu kabi xabarlar ko‘p uchraydi. Bu asarlarda Navoiy ishtirok etgan harbiy ishlarga aloqador voqealar ham bitilganki, shu haqda tadqiqot olib borayotganlar uchun bular qimmatli manbadir. Navoiyning vaziyat taqozosini anglab, to‘g‘ri qaror qabul qilishdagi ulug‘ idroki haqidagi hikoyalar uning harbiy ishlarida ham nuktadon ekanidan xabar beradi.

“Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do‘st” asarida 1469–1470-yillarda Yodgor Mirzo Muhammadning qatliga oid bobida shunday yoziladi:

Husayn Boyqaro “*ul bog‘dagi qasr tevaragida tikilgan chodirga ko‘zi tushgach, yonidagi ichkilardan bir nechtasiga “chodirga kiringlar va ichida kim bo‘lsa, oldimga olib kelinglar!” deb buyurdi. Hazrat sultonning eng yaqin kishisi Amir Alisher jasurlik qadamini ilgari bosdi va o‘sha vaqtlarda o‘zining navkari bo‘lgan Amir Bobo Alini chodir ichiga yubordi. U ichkarini tekshirib chiqqach, qaytib kelib, “bu chodirda hech kim yo‘q”, dedi. Shundan so‘ng mansur xoqon ko‘shkni o‘rab olib, qutlug‘ mavkab mulozimlarini yuqoriga chiqishga buyurdi. Ammo hech kimdan sas va tovush chiqmadi. Chunki mulozimlar qalbini qo‘rqinch tuyg‘ulari qamrab olgan edi. Nihoyat, Amir Nizomiddin Alisher bu topshiriqni bajarish uchun ruxsat oldi va o‘z otini Amir Bobo Aliga topshirib, qilichini qinidan sug‘urdi*

*va uni xuddi hassaga o‘xshatib ushlab, hech kim bilmaydigan bir yo‘l orqali tepaga chiqqach boshladi. Shundan so‘ng zafar nishonli mansur xoqon Amir Qul Alini ham mazkur ishga tayinladi. Qutlug‘ mavkab mulozimlari qasrga kirdilar. Hoji Ali Piyoda Yodgor Muhammad Mirzoni noz uyquda yotgan holda ko‘rib, qo‘lga oldi. Ammo Amir Qul Ali shahzodani undan tortib olib, Amir Nizomiddin Alisher tepaga chiqqach xufiya yo‘l orqali pastga sudrab tushdi va shu sudraganicha oliy shonli podshoh oldiga keltirdi”.*

**SHU ASARNING** yana bir sahifasida, Navoiy Boyqaro bilan harbiy yurishlardan birida Puli Xotunda ekanligida Hirotga g‘avg‘o qo‘pgani, ba‘zi beboshlarning nohaq soliq solishi va boshqa adolatsizliklaridan azob chekkan xalq isyon qilgani haqida xabar keladi. Farmonga ko‘ra, a‘yonlardan biri shaharga borib, buzg‘unchi Xoja Abdullohni kishanlab keladi. Xoqon “adolat va insof ishini yo‘lga qo‘yish, zulm va zo‘ravonlik rasmini yo‘qotish uchun” Amir Nizomiddin Alisherni poytaxt Hirotga yuboradi. **Navoiy odatiga ko‘ra, Hirotga mazlumlariga rahm-shafqat ko‘rsatib, adolatni tiklaydi.**

**1472-YIL YANVAR OYIDA** Navoiy Boyqaro farmoniga binoan, “oliy devon ishlari boshlig‘i sanalmish eng yuqori mansab”ga tayinlanadi. Xondamirning yozishicha, “*Amir Nizomiddin Alisherning sharofatidan saltanat va podshohlik ishlari yangidan rivoj-u ravnaq topib, xalq va qo‘shin ishlari qaytadan tartib-u nazm sifatiga ega*” bo‘ladi.

**BALXDA HOKIM BO‘LGAN** Ahmad Mushtaq ismli kishi isyon bayrog‘ini ko‘tarib, xiyonat yo‘liga kirganda Husayn Boyqaro shaharni qamal qiladi. Qal‘a atroflarining amirlarga taqsimlanishini yoza turib, “*hazrat sultonning eng yaqin kishisi Amir Alisher qal‘aning Shirxur darvozasini lashkargohga aylantirdi*”, deydi Xondamir. Qamal kunlarining cho‘zilib ketishi natijasida lashkar orasida qattiq qahatchilik va ocharchilik boshlanadi. Askarlarning tinka-madori quriydi. Shunda “*Amir Nizomiddin Alisher saltanat poytaxti Hirotga borsin va imkon boricha Xuroson viloyatlaridan g‘alla yig‘dirib kelib, urduga yuborsin!*” degan oliy farmon chiqariladi. Oziq mahsulotlari Balxga jo‘natilgan vaqtda temuriy shahzodalar qatorida turgan Abulxayr Mirzo yov bo‘lib, Hirot dan qochadi. **Amir Alisher uni quvlab, Tangrining irodasiga ko‘ra, qo‘lga tushirib, Ixtiyoriddin qal‘asiga qamaydi.**

**“OLIJANOB XULQLAR”** asaridagi harbiy qo‘shin, lashkar ishiga oid bir necha voqealarda Alisher Navoiy shaxsi ko‘rinadi.

Shulardan birida Yodgor Mirzo Muhammadning Hasanbek Turkman bilan til biriktirib kelayotganini eshitgan Boyqaro amirlari va lashkarini dushmanga qarshi otlantiradi. Qo‘shin Mashhad



shahridan o'tganida oldindagi amirlarga dushman yaqinlashib qolgani to'g'risidagi xabarlar kela boshlaydi. Shunda Boyqaro tezlik bilan yog'iy tomon harakat qilish lozimligini aytadi va hujumning vaqtini belgilash uchun huzuriga munajjmlarni chorlaydi.

Dushman bilan to'qnashuv tayin bo'lib turgan soatlarda hech kim hukmdorga bir so'z deya olmas, a'yonlar qaltis vaziyatda jim bo'lish va bo'sunishni ma'qul ko'rgan edilar. Shu lahzalarda Navoiy Boyqaroga shunday maslahat beradi:

**– Hozir munajjim chaqirishdan va qo'shin uchun vaqtning omadli yoki omadsiz ekanligini aniqlashdan hech qanday naf yo'q. Hujumning qaysi soatda boshlanishidan qat'i nazar, hozir bu ishdagi har qanday imillash yoki to'xtalish zararimizga xizmat qilib, g'alabaga to'sqinlik qilishi tayin. Shul sabab qarshi harakatda har bir daqiqani g'animat bilib, faqat shoshilmoq zarur va bu eng to'g'ri yo'l bo'lur.**

Husayn Boyqaroga bu taklif ma'qul ko'rinadi va dushman tomon yurish boshlanadi. Navoiyning maslahati bilan o'z vaqtida dushman ustiga tashlangan qo'shinning tezkorligi sabab Mirzo Yodgor Muhammad mag'lubiyatga uchraydi.

#### HIROTNI QAYTARIB OLISH

voqeasida Husayn Boyqaro Amir Alisher Navoiyni yashirin bir joyga chaqirib, deydi:

– Eshitishimizcha, turkmanlar saltanat poytaxti Hirotida jabra-zulm bayrog'ini tikibdilar. Mirzo Yodgor Muhammad rohat-farog'at va g'aflatda aysh-ishrat chirog'ini yoqqanmish. Ko'nglimdan shu narsa o'tmoqdaki, agar fikringiz shuni taqozo qilsa, u tomonga yurish qilsak.

Navoiy mazkur fikrni ma'qullab, bu rejaning yashirin tutilishi lozimligini uqtiradi:

– Bu gap menga ham aytilmaganda yaxshiroq bo'lar edi, – deydi.

Shunda Sohobqiron Sulton:

– Bu masalada haddan ortiq ehtiyotkorlikning va bunchalik qattiq turib so'rashning sababi nimada? – deb so'rganida Navoiy shunday javob beradi:

**– Bu gapni sir saqlash o'ta zarurdir.** Chunki har kuni bizning odamlarimizdan bir guruhi Mirzo Yodgorning oldiga qochib o'tmoqda. Ular bu xabarni yetkazishdan ortiq qimmatliroq sovg'a topolmaydilar. **Agar u bu yashirin rejadan xabar topsa, ehtiyotkorlik choralarini ko'rish va hatto bu tomonga yurish qilishi ham ehtimoldan uzoq emas.**

Qo'shin Hirot tomon yo'lga chiqib, to Langari Bo'kan degan joyga yetgunga qadar hech kim yurish maqsadini bilmaydi. Shu joyga yetgandan keyingina amirlar va davlat arkonlariga yurish maqsadi aytiladi. Ko'pchilik Bog'i Zog'on bog'iga saroy bo'sh qoladigan tush payti kirib borish kerak, deydi. Ammo Amir Alisher bu fikrni ma'qullamaydi:

**– Bog'ga kirish uchun eng qulay fursat tundadir.** Chunki kunduz kuni Mirzo Yodgorning odamlari bizning

hujumimizdan xabar topib, tezlik bilan kuch yig'ishlari, natijada biz muvaffaqiyatsizlikka uchrashimiz mumkin. **Tunda hujum qilinadigan bo'lsa, ular xabardor bo'lgan taqdirda ham, o'z kuchlarini yig'ishi ehtimoldan yiroq.** Bundan tashqari, biz ko'zlagan maqsadimizga erisha olmagan taqdirimizda ham, qorong'ilik pardasi tutilgan tun chog'ida biror tomonga chekinishimiz mumkin, holbuki, kunduz kuni buning iloji bo'lmaydi.

Alisher Navoiy aytganidek, qo'shin Bog'i Zog'onga kechasi kirib borib, g'alaba qozoniladi.

**SULTON SAID** Mirzo Sulton Abusa'id zamonida Sohobqiron Sulton lashkarlari ba'zida zamon taqozosiga ko'ra, Xuroson viloyatlari va tumanlariga hujumlar uyushtirib turardi. Bir gal ulardan ikki nafari Amir Ahmad Hoji odamlari tomonidan qo'lga olindi. U o'ylab o'tirmasdan, bularning har ikkalasi qatl etilsin va boshlari Samarqand voliysi Sulton Ahmad Mirzoning oldiga olib borilsin, deya hukm chiqaradi.

O'sha paytda **Ahmad Hojining qo'shinida bo'lgan Navoiy** bu hukm haqida eshitib, ikki asirga rahmi keladi va amirga:

– Bu ikki kishini tiriklay Sulton Ahmad Mirzoga yuborish kerak, toki uning o'zi bulardan ahvol qanday ekanini bilsin va ma'qul hukmni o'zi chiqarsin, – deydi.

**Ahmad Hoji Navoiyni olqishlab, asirlarni podshoh oldiga jo'natadi.** Sulton Ahmad Mirzo ulardan haqiqiy ahvolni bilgach, har ikkisini qamoqqa tashlaydi.

Oradan bir qancha vaqt o'tgach, ularning biri ozod bo'lib, Navoiy huzuriga kelib, bir umr mulozimlari qatoridan joy oladi.

**BIR SAFAR** Sulton Said amirlaridan bir guruhi Chahchah yaqinidagi jangdan so'ng bir to'da askarni asir olib, ularni qatl etish va boshlarini o'z podshohlariga yuborish uchun bo'lib oladi. Shu vaqtda **Alisher Navoiy Amir Sulton Hasanning o'g'li Mirzobek bilan birga edi.** Asirlarning ikkisi Amir Sulton Hasanga ajratiladi.

Ushbu amirning o'zi bo'lmagan, ammo Navoiy Mirzobek bilan birga turgan joyga tavochi ikki asirni olib keladi-da, nima qilish lozimligini uqtiradi. Olijanob Amir Alisher bu holatni ko'rib, tashvishlanadi va Mirzobekka qarab:

– Men jang maydonining falon joyida bir jasadni ko'rdim. Jallodga bir-ikki tanga bersangiz, uning kallasini olib kelsa va shuni asirlardan birining kallasini, deb podshohning oldiga jo'natsangiz, asirlardan birini o'ldirmasdan qo'yib yuborsak, degan umidda edim, – deydi.

**Mirzobek Navoiy aytganini qildi va bir kishining hayoti saqlab qolinadi.**

Hazrat Navoiy ikkinchisining hayotini qay yo'l bilan saqlab qolsak ekan, deb o'ylab turganida, tavochi kelib, bittadan ortiq asirni o'ldirmang, deydi. Shunday qilib, jang

maydonidan olib kelingan kallani unga berib, har ikki asirni qo'yib yuboradilar.

**BIR KUNI** Amir Navoiy saroy amirlari huzurida arz qilib kelgan kishilarning arzlari tinglab o'tirganida, to'satdan sadrlik kabi oliy mansabga yetishgan mavlono Qutbiddin Havofiy kelib, oldin mening arzimga quloq soling, deydi.

Navoiy hol-ahvol so'rash va mehribonlik ko'rsatish bilan Mavlaviyning g'azabini so'ndirishga urinadi. Uni o'z yoniga o'tirg'izib, shikoyatini so'raydi. U shunday deydi:

– Xoja Husayn Kirangiy meni qattiq haqorat qildi. U menga sen ilgari mavlono Muhammad Muammoiy navkarlaridan biri eding, dedi.

**Navoiy bu gapni eshitib, ajablanadi va tabassum qilib:**

– Bu gapdan achchiqlanish va da'volashishning nima keragi bor? Agar o'sha Xojani bu yerga chaqirib, ushbu da'voni ko'rib chiqadigan bo'lsak, uning aytganlari to'g'ri bo'lib chiqadi. To'g'ri gapdan xafa bo'lish aqlga to'g'ri kelmaydigan ishdir.

Shundan keyin davrada o'tirgan Amir Sulton Hasanga ishora qilib aytadi:

**– Men ham ilgari Amir Sulton Hasanning navkari edim. Hozir amirlik va noiblik kabi muhim mansab va lavozimga erishganimga qaramasdan, hali ham u kishining xizmatida bo'lishdan or qilmayman.** Agar imkoni bo'lsa, u kishiga oldingidan ham ko'proq xizmat qilib, o'zimni u kishining qullari jumlasidan sanayman.


Qabulda o'tirganlar bu gaplarni eshitib, Navoiyning benihoya kamtarligi va xushfe'lligidan hayratga tushadi. Bu so'zlarni eshitgan Amir Sulton Hasan xijolatda qoladi, Mavlaviy bo'lsa uyalib, bema'ni da'vosidan kechadi.

**SHU VA SHU KABI** voqealar Alisher Navoiyga amirlik rutbasi bejiz berilmagani, bolalik va o'spirinlik paytlarida u ham temuriy shahzodalar bilan birga harb ilmidan jiddiy saboq olganini bildiradi. Navoiyning adabiyot va nafis san'atlarga bo'lgan kuchli muhabbati, halim qalbi, Bobur aytganidek, nozikta'bligi hamda butun umri va kuch-quvvatini, iste'dodini insonning kamoloti, jamiyat taraqqiysi va ezgulikka yo'naltirib, adabiy asarlar yaratishga sarflagani bois u haqda yozilgan xotiralar va asarlarning deyarli barchasida jang va lashkar bilan bog'liq esdaliklar juda kam uchraydi. Shu o'rinda ulug' hukmdor va sarkardalarning bolalik paytlarida shug'ullangan mashg'ulotlari haqidagi ma'lumotlar kamligini inobatga oladigan bo'lsak, Navoiydek ulug' so'z san'atkori haqida yozganda bu masalaga ehtiyoj ham bo'lmagan.

Ammo bir narsa aniqki, u davrlarda har bir er kishi, ayniqsa u oliy mansabli xonadon vakili bo'lsa, lavozimi va kasb-koridan qat'i nazar, qilich chopish, ot minish va suvda suzishni mukammal bilishi shart va majbur bo'lgan. Zero o'sha zamonlarda hokimlikka tayinlangan kishi, o'z navbatida, qo'shin boshlig'i ham hisoblangan.

**YUQORIDA** Navoiyning harb ilmi va jang san'atiga aloqadorligi bo'yicha faqatgina tarixchi G'iyosiddin Xondamirning asarlaridan imkon darajasida foydalandik. Bu haqda boshqa zamondosh tarixchilar asarlarida ham xabarlar uchrashi tabiiy. Ulug' bobomiz "Hamsa"sidagi jang, harbiy qurol va aslahalar bilan bog'liq va boshqa shu kabi mavzularga oid mukammal voqea va tafsilotlar o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi, nazarimizda.

Navoiy asarlarida qo'llanilgan harbiy atamalarning o'zi-da bir dunyo...







## “Jasorat maktabi”



Bugungi kunda yoshlar bilan ishlash, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu borada joylarda harbiy-ma'muriy sektorlar tashkil etilib, harbiy qismlar bilan tizimli va maqsadli hamkorlik amalga oshirilmoqda. Avvaliga “Yosh vatanparvarlar yig'ini” sifatida tajribada qo'llanilgan, bugungi kunda “Jasorat maktabi” deya nom olgan harakat respublikamizning barcha hududlarini qamrab olgan va minglab yoshlarni katta hayot tomon yo'naltirmoqda.

Harbiy-ma'muriy sektorlarning Mudofaa vazirligi bilan hamkorligi natijasida yoshlar va harbiy xizmatchilar ishtirokida festivallar tashkillashtirish, harbiy qismlarga ekskursiyalar uyushtirish, ko'rgazmalar hamda madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish yosh avlodni tarbiyalashda har tomonlama samarasini berayotgani nafaqat raqamlarda, balki ijtimoiy turmush tarzimida o'z aksini topayotgani e'tiborli. Vatan himoyachilari kuni bayrami munosabati bilan joylarda “Jasorat maktabi” loyihasining 2024-yilgi birinchi mavsumi o'z yakuniga yetdi. Toshkent, Jizzax, Surxondaryo, Farg'ona viloyatlarida harbiy-ma'muriy sektorlar hamda okrug qo'mondonliklari hamkorligida o'tkazilgan “Jasorat maktabi” loyihasi yoshlar siyosatiga davlat miqyosida ahamiyat berilayotganini yana bir marta isbotlab berdi.

Ma'lumki, 2020-yil fevral oyidan boshlab shu kunga qadar minglab jizzaxlik yosh yigitlar mazkur loyihaning qaldirg'ochlari sifatida boshqa tengqurlariga o'rnak bo'lib keldi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi va Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi tomonidan “Yoshlar daftari”ga kiritilgan, muqim ish o'rniga ega bo'lmagan hamda ichki ishlar nazoratida bo'lgan yoshlar ro'yxati shakllantirilib, ulardan 100 nafari “Jasorat maktabi” loyihasining birinchi mavsumi ishtirokchisiga aylandi. 18-30 yosh oralig'idagi 100 nafardan iborat mahalliy yosh 10 kunlik jangovar, sport musobaqalari, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik hamda ma'lum bir kasbga yo'naltirish bo'yicha mashg'ulotlarga jalb etildi.

Hayot qiyinchiliklarini yengish yo'lida davlat miqyosidagi imkoniyatlarni qo'lga kiritgan bu yoshlar ota-onasi hamda yaqinlaridan uzoqda ularni qanday sarguzashtlar va unutilmas onlar kutib turganini xayollariga ham keltirmagani aniq. Maxsus avtobuslarda Jizzax shahri markazidan harbiy qismga yetib kelganda qaysidir o'quv markaziga kasbga yo'naltirish bo'yicha o'qishga

ketyapmiz degan xayolda bo'lgan yoshlar nigohidagi hayratni anglash qiyin emasdi. Sartaroshxonada sochlarini harbiychasiga tekislatib, hammomda yuvib chiqqan yigitlarga ohori to'kilmagan harbiy kiyimlar tarqatilganda hayratlanishlar yanada ortdi. Uzoq vaqt o'stirgan “chiroyli” sochlar, bugungi kun urfiga mos “ko'rkam” kiyimlar, bekorchi o'tkazilgan qimmatli vaqtlar kelajak uchun foydali saboqlarga sarflandi.

Harbiy qismda yoshlarning bandligini ta'minlash maqsadida tadbirkorlik, sartaroshlik, elektropayvandlovchilik guruhlariga ajratilib, Jizzax shahridagi “Ishga marhamat” monomarkazining malakali mutaxassislari, oliy ta'lim muassasalari pedagoglari hamda Savdo-sanoat palatasi vakillari tomonidan o'tkazilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar tashkillashtirildi. Tibbiy ko'rik hamda gigiyenik amaliyotdan keyin egniga harbiy libos kiygan yoshlar haqiqiy ma'noda chiroyli va ko'rkam ko'rinishda saf tortdi.

Harbiy orkestr ijro etgan musiqa sadolari ostida harbiy qismga yetib kelgan yoshlar guruhlariga bo'linib, maydonda harbiychasiga saflandi. “Jasorat maktabi”ga bag'ishlangan tadbirning tantanalil ochilish marosimida qatnashgan Jizzax viloyati hokimining birinchi o'rinbosari Akmal Savurbayev hamda Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining o'rinbosari polkovnik Nuriddin Kadirov minglab tengdoshlari orasidan tanlab olingan, 10 kunlik dastur asosida harbiylar safiga qabul qilingan jizzaxlik yoshlarni chin dildan qutladi. Tadbirda ishtirok etgan faxriylar davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlarga to'xtalib o'tar ekan, ulardan to'laqonli foydalanish yangi-yangi yutuqlar sari tashlangan qadam bo'lishini ta'kidladi.

Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari yoshlarni tarbiyalashda joriy etilgan tizimning samarasi, buning ortidan yoshlar erishayotgan yutuqlarga urg'u berar ekan, yig'in qatnashchilari bu an'anani davom ettirishiga ishonch bildirdi. Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni



o'rinbosari esa yig'in davomida jismoniy, axloqiy-ruhiy jihatdan a'lo ko'rsatkichlarga erishgan yoshlar Mudofaa vazirligi va boshqa kuch tuzilmalari qo'shinlarida kontrakt bo'yicha xizmat qilishlari mumkinligini aytdi. Buning uchun mart-aprel oylarida bir oylik safarbarlik chaqiruvi rezervi asosida, may oyidan esa kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga qabul qilinib, milliy armiyamiz safida sharaflil kasb egasi bo'lish istagidagi yoshlarga ana shunday imkoniyat borligini ma'lum qildi.

Yig'in yakunida loyihada faol ishtirok etgan, o'tkazilgan musobaqalar g'olib va sovrindorlari munosib taqdirlandi. Kasbga yo'naltirilgan darslarni a'loga o'zlashtirganlarga esa imtiyozli kredit olish imkoniyatini beruvchi sertifikatlar topshirilib, har bir ishtirokchi haqida to'plangan ma'lumotlar asosida kasb-hunar hamda yoshlar markazida tashkil etilgan to'garaklarga yo'llanmalar berildi. “Jasorat maktabi” loyihasining





## minglab yoshlarni katta hayot tomon yo'naltirmoqda



ushbu mavsumi bo'yicha erishilgan natijalardan xulosa qiladigan bo'lsak, tadbir tashkilotchilari yana 100 nafar yoshning kelajakka bo'lgan ishonchini oshirishga munosib hissa qo'sha oldi. Bu loyihada kamtarona xizmatlarini ayamagan harbiylarimiz esa ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek ezgu ishda hamisha bel bog'lab xizmat qila olishlarini yana bir bor amalda isbotladi.

"Jasorat maktabi" loyihasi har bir mavsum davomida jizzaxlik yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib berayotganiga yana bir bor guvoh bo'ldik. Ular uchun tashkil etilgan mashhur san'atkorlar ishtirokidagi konsert dasturlari, futbol, milliy kurash, harbiy estafeta kabi sport musobaqalari, kasbga yo'naltirilgan o'quv kurslari, teatr tomoshalari, tanikli ijodkorlar bilan uchrashuvlar, O'zMU Jizzax filialining professor-o'qituvchilari va

mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan trening darslar... Bularning barchasi Paxtakor tumanidan kelgan Javlon Nizomov uchun begona emasdi.

### Javlon NIZOMOV

(Paxtakor tumanidan):

- "Jasorat maktabi"da ikkinchi marta ishtirok etyapman. To'g'rirog'i, bu safar tashkilotchilar meni boshqa tengqurlarimga o'rnak sifatida taklif etdi. Chunki "Jasorat maktabi"dagi saboqlarga qadar men ham xuddi mana shu tengdoshlarim singari bekorchi yoshlardan biri edim-da. Hozirda O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Iqtisodiyot fakultetida IT sohasi bo'yicha sirtqi ta'limda tahsil olayapman. Bu hayotimda hozirgacha erishgan eng katta yutug'imdir. Bundan bir yil avval kimgadir o'rnak bo'lishimni tasavvur ham qilmaganman. Avvalgi xarakterimni yaqindan bilganlar ancha bosiq bo'lib qolgansan, deydi. Bu holat o'zimga ham seziladi. Ota-onamga, aka-ukalarimga munosabatim o'zgardi. Oilam uchun, Vatanim uchun javobgarlik hissi ortdi. Loyihada ikkinchi

marta qatnashayotgan bo'lsam-da, tartib-intizom, mashg'ulotlar va o'tkazilgan tadbirlarga befarq emasman. Guruhdoshlarim bilan birgalikda 10 kunlik yig'inning barcha mas'uliyatini birgalikda zimmamizga olishga ahd qilganmiz.

### Aziz XUDOYBERDIYEV

(Sharof Rashidov tumanidan):

- Bu yerga kelgan kunimdan oq vaqtning qanchalik qadrli ekanini anglab yetdim. Ertalab 6:00 dan kechki 22:00 gacha qat'iy kun tartibi bo'yicha yig'inda qatnashyapmiz. Avvaliga bizga birlashtirilgan komandirlarning buyruqlari, tergalari g'ashimga tegardi. Kundan kunga harbiycha hayotning kelajagim uchun qanchalik muhimligini anglay boshladim. Qisqasi, xayolimga kelmagan, o'ylab ko'rmagan voqealar bo'lyapti. Onamning biror kasbga o'qishimni eshitib, qanchalik xursand bo'lgani-chi. Birdaniga hayotimda keskin burilish bo'lganini his qildim. Bu yerga kelib, shu paytgacha har bir o'tgan kunimni ijtimoiy tarmoqlardagi bekorchi narsalarga sarflaganimga, ko'cha-ko'yda maqsadsiz tentirab yurgan davrimga achindim. Ishonasizmi, kitob o'qishga, nimadir qoralashga hafsalasi bo'lmagan ilgari

Azizdan asar ham qolmagan. Har kuni bo'sh vaqtimni kutubxonada kitob o'qishga, komandirlarimning o'gitlari-yu atrofimda bo'layotgan voqealarni yon daftarga qayd etib boryapman. Nasib etsa, muddatli harbiy xizmatga borib,

Vatan himoyasiga o'z hissamni qo'shmoqchiman. Egnimizdagi harbiy libosning mas'uliyati qanchalik sharafli, shu bilan birga mashaqqatli ekanini "Jasorat maktabi"dagi saboqlar davomida ko'rib turibmiz. Kimdir menga 10 kunlik yig'in davomida hayotda keskin burilishni amalga oshirish mumkinmi, degan savol bilan murojaat qilishi mumkin. Bunga qo'rqmasdan, ha, deya javob bera olaman. Chunki harbiycha tartib-intizom, ertalab vaqtli turish, jangovar, jismoniy, ma'naviy darslar va kasbga o'qitish mashg'ulotlaridan kelajagim uchun qo'yilgan mustahkam poydevorni qura olishimga ishonchim komil.

Biz suhbatimiz davomida onasi bilan telefonda suhbatlashishga imkoniyat borligini aytganimizda Aziz ham, Javlon ham rad javobini berdi. Ulardan bu yerda tartib-qoida hamma uchun birligi, telefonda gaplashishning ham vaqti belgilanganligi, komandirlarning ishonchini suiiste'mol qilish harbiy xizmatchiga xos emas, degan javobni, to'g'risi, kutmagandik. O'tgan 5 kun yigitlarni shunchalik o'zgartirganiga hayratlanmasdan boshqa choramiz yo'q edi. Ha, "Bo'sh ish o'rinlari" yarmarkasi, "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi, tanikli aktyor va adiblar ishtirokidagi adabiy kechalar, uch avlod uchrashuvlari, bir-biridan qiziqarli sport musobaqalaridan iborat "Jasorat maktabi" o'z nomi bilan jasorat ko'rsatishga ahd qilganlar maktabi. U hamisha Aziz, Javlon, Bahodir, Asadbek, Jasurbek singari yuzlab, minglab yigitlarning hayotida keskin burilish yasagan, yoshlar talpinadigan maskan bo'lib qolaversin.

**Asror RO'ZIBOYEV,**  
"Vatanparvar"



Albatta, birinchi galda ota-ona maslahat-tavsiya bermog'i lozim bo'ladi. Buning uchun ota-ona o'zlari ma'rifatli, saviyasi yuksak bo'lishi kerak. Tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi haqidagi ko'hna o'git bejiz aytilmagan. Kitob tanlashda bolaga ikkinchi muhim yordamchi maktabdagi adabiyot muallimidir.

Kuzatishimcha, aksariyat adabiyot muallimlari o'zlarining bu muhim vazifasiga yaxshi e'tibor qilmaydilar, bolalarning sinfdan tashqari qanday kitoblarni o'qishayotganiga qiziqmaydilar, maktab darsliklari doirasidan chetga chiqolmaydilar. Adabiyotning san'atning bir turi sifatidagi mohiyatini yaxshi ilg'amaydilar. Adabiy jarayonni mutlaqo bilmaydilar, bilishga intilmaydilar ham. Sanoqli adabiy nashrlarni o'qib bormaydilar. Bunday muallimlarning qo'lida ta'lim olgan bolalarda adabiyotga ishtiyoq, qiziqish uyg'otish qiyin. Adabiyot muallimining asosiy vazifalaridan biri yaxshi kitobxon tayyorlashdir. Shu o'rinda

tilimizga tarjima qilingan barcha asarlarini topib o'qidim. Balki keyinchalik kasb tanlashimga amakimning o'sha hikoyasi turtki bo'lgandir.

Ishonchim komilki, bolaning fanlarga qay darajada qiziqishidan tortib, qanday kasb tanlashi va qanday inson bo'lishigacha – hamma-hammasida o'qituvchining SHAXSI muhim rol o'ynaydi. Afsuski, biz bu muhim masalaga shu davrgacha yetarli e'tibor bermay keldik. Biz san'atning barcha turlarida birinchi galda iste'dod lozimligini ko'p ta'kidlaymiz, ammo yaxshi muallim bo'lish uchun talant kerakligini unutib qo'yamiz. Pedagogika universitetlariga talabalikka qabul mahali birorta test savoli abituriyentda bunday iste'dod borligini aniqlab berolmasa kerak. Afsus... Balki, bunday noyob iste'dodni aniqlash uchun maxsus test savollari tuzish joizdir...

Faraz qilaylik, kitobxon o'qish uchun o'ziga kerakli kitobni topdi ham deylik, ko'nglida mutolaaga havas-ishtiyoq ham bor, xo'sh, endi u kitobni qanday o'qishi kerak? Bu ham juda muhim masala. O'qish boshqa, uqish boshqa deya bejiz aytilmagan. O'qish malakasi ham yillar davomida shakllanadigan tajriba mahsulidir. Eshitishimcha, ayrim xorijiy mamlakatlarda kitob o'qish malakasi fan sifatida maxsus o'rgatilar ekan. Buyuk nemis shoiri, mutafakkiri Gyote sakson yoshida ham haligacha kitob o'qishni yaxshi o'rganolmaganidan yozg'irib gapirgan ekan. Bu soxta kamtarlik emas, albatta.

Kitob o'qishda tezlik masalasi ham muhimdir. Sezganmisiz, yosh bolakay (*kattalarda ham shunday holatni kuzatish mumkin*) kitob o'qiyotganda lablari bilinar-bilinmas pichirlayotgandek bo'ladi. Mutaxassislarining fikricha, ana o'sha holat kitobni tezroq o'qishga xalaqit berar ekan. Tez o'qishni o'rgatadigan maxsus kurslar, ko'plab adabiyotlar bor. O'zimcha mashqlar qilib, tez o'qishni o'rganmoqchi bo'ldim-u, oxirigacha hafsalam yetmadi.

Xo'sh, tez o'qish nima uchun kerak o'zi degan tabiiy savol tug'iladi. Javobi oddiy: insonning umri juda qisqa, dunyoda yaxshi kitoblarni o'qib chiqishga ulgurish qiyin. Bu masalada oddiygina bir xulosaga kelganman. G'oyaviy-badiiy saviyasi yuksak kitoblarni shoshilmay, "mazasiga quloq solib" deganday, sekinroq o'qiyversam ham bo'ladi, ma'lumot olish, xabardor bo'lib qo'yish uchungina o'qiladigan kitoblarga, publitsistik asarlarga esa kamroq vaqt sarflansa ham bo'laveradi...

Kitobni chuqurroq anglashda, undan chinakam zavq-shavq olishda uni qayta o'qib chiqish juda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'pchilik yaxshi bilmaydi. "Bir marta o'qib chiqishga arzimaydigan kitoblar ikki marta o'qib chiqishga ham arzimaydi" degan edi donolardan biri. Darhaqiqat, yaxshi kitoblar ikkinchi marta, qayta mutolaa

qilinganda o'zgacha kayfiyat uyg'otadi, taassurotlar yangilanadi, yozuvchi g'oyasi bor ko'lami – salmog'i bilan namoyon bo'ladi. Esimda, ustoz adabiyotshunos va mohir tarjimon Ibrohim G'afurov bir maqolasida "Qutlug' qon" romanini 12 marta qayta o'qiganini yozgan edi. Jahon va o'zimizning o'zbek adabiyotida qayta-qayta o'qishga arziydigan asarlar kam emas. Gap ularni tanlay bilishda, vaqt, hafসা topib qayta qo'lga olishda.

Ayrim ota-onalar kutubxonasini turli kitoblar bilan allaqachon to'ldirib qo'ygan bo'ladi, ammo ularni o'qib chiqishga negadir shoshilmaydi. Farzandlarini ham bu kitoblarni o'qib chiqishga da'vat etaverishmaydi. Muhimi – kitob bormi-bor, bir kun kelib o'qirmiz deb o'ylashadi. Vaholanki o'sha "bir kun" hech qachon bo'lmasligi mumkin. Mutolaada ham xalq dostonlarida tez-tez takrorlanadigan – "Dam bu damdir, o'zga damni dam dema" degan hikmatga amal qilmoq ma'quldir. Rahmatli adib Asqad Muxtor qayd etganidek, "Kitob boylik, sotib olingani emas, o'qilgani boylikdir".

Shaxsiy kutubxonamdagi noyob kitoblarning ko'pchiligini hali o'zim ham o'qib chiqolganimcha yo'q. Nabiralarni kitob o'qishga da'vat qilishdan charchaganimda ularni kutubxonaga yetaklab kiraman va shunday deyman: "Mana shu kitoblarni men sizlar uchun to'plaganman. Agar ulardan foydalansangiz, bu kutubxona xazina bo'lib qoladi, agar aksincha bo'lsa bu kitoblar shunchaki keraksiz qog'ozlar, ya'ni makulaturaga aylanadi. Bu gaplarimni hozir tushunmasangiz, kelajakda tushunarsizlar. Ammo unda kech bo'lishi mumkin."

Bilmadim, bunday tarbiyaviy soatlarning qanchalik foydasi bor ekan? Shunday pallalarda donolarning bolani dunyoda keltirish oson, ammo uni tarbiyalash qiyinligi haqidagi fikrlari xayolimga uriladi...

Mavzuga ozroq daxldor bo'lgani uchun o'zimning kitobxonlik tajribam haqida to'xtalmoqchiman. Men o'qilgan kitoblar haqida yozish uchun maxsus qalin daftar tutganman. Hozirgacha ularning soni o'ntadan oshib qoldi. Bu daftarlarga o'qigan kitobimning nomi, muallifi, qachon, qayerda chop etilgani, asosiy qahramonlar, o'zimga ma'qul bo'lgan jumlar, hikmatga monand gaplar hamda kitob haqidagi qisqacha fikr-mulohazalarimni (*kichik taqriz*) yozib borishni odat qilganman. Kitob har qancha qiziqarli, mazmunli bo'lmasin, yillar o'tgach, ko'p joylari xotiradan ko'tariladi. O'sha daftarga shundoq ko'z tashlasam kifoya – kitobni yaqinda o'qib chiqqanday bo'laman.

Ko'p sonli aziz kitobxonlarga haqiqiy mutolaa zavqi bir umr hamroh bo'lib qolishini tilab qolaman.

**Shodmon OTABEK,**  
**O'zbekistonda xizmat**  
**ko'rsatgan madaniyat xodimi**

# MUTOLAA MADANIYATI

(3-maqola)

mashhur rus shoiri, Nobel mukofoti sohibi Boris Pasternakning "Buyuk kitobxonlar paydo bo'lgandagina buyuk adabiyot paydo bo'ladi" degan so'zlari esga tushadi.

Maktabdagi ta'lim-tarbiya bilan bog'liq aksariyat muammolarni ijobiy hal etish bevosita

o'qituvchining SHAXSIYATI bilan bog'liqdir.

Maktab davridagi shunday bir unutilmas lahzani eslagim keladi. O'zi ham ahyon-ahyon she'rlar yozib yuradigan, ko'p nusxali gazetani mustaqil, bir o'zi chiqargan darveshfe'l amakim Sodiq Otaboyev bir muddat adabiyotdan saboq bergandi. Bir kuni u dars paytida Pushkinning "Dubrovskiy" qissasini hikoya qilib berdi. Xuddi bir teatr aktyoriday, rolini qoyilmaqom qilib ijro etdi. Amakimning bunday noyob iste'dodi borligini birinchi marta ko'rib turardim. Boshqalarni bilmadim-u, men bu hikoyadan shu qadar ta'sirlandimki, ertasidan boshlab o'sha qissasining emas, Pushkinning ona



# QUROLLI KUCHLAR AKADEMIYASI – OLIY HARBIIY TA'LIM MUASSASALARI LOKOMOTIVI

2017-yil 25-aprel kuni yangidan barpo etilgan Qurolli Kuchlar akademiyasi bugungi kunda yuqori bo'g'in qo'mondonlik ofitserlarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibini har tomonlama yetuk malakali ofitser kadrlar bilan butlash hamda mudofaa qurilishi sohasida ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish bo'yicha eng zarur vazifalarning bajarilishida g'oyat muhim o'rin egallab kelmoqda.

Ushbu o'quv maskani mamlakatimizdagi yetakchi ilmiy va oliy ta'lim muassasalarida to'plangan faoliyat tajribasini o'ziga qamrab olgan holda, harbiy ta'limning yagona tizimida asosiy o'rinni egallab, tom ma'noda harbiy ilm-fan markaziga aylandi. Akademiyada yosh ofitserlarni tayyorlash, qo'shinlarda xizmat o'tayotgan ofitserlar malakasini oshirish, shuningdek boshqaruv tarkibidagi qo'mondonlik kadrlarini maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish ishlari amalga oshiriladi. Mazkur vazifalarni bajarish uchun ta'lim jarayoniga eng yangi usul va texnologiyalar joriy etilib, o'quv auditoriyalari zamonaviy trenajyorlar, o'quv va laboratoriya asbob-uskunalarini va kompyuter texnikasi bilan jihozlangan.

## Akademiyada 5 ta fakultet faoliyat yuritadi:

1. Harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasi fakulteti.
2. Xorijiy harbiy kadrlarni tayyorlash maxsus fakulteti.
3. Umumqo'shin qo'mondonlik fakulteti.
4. Chegara faoliyati fakulteti.
5. Malaka oshirish fakulteti.

## Hozirgi vaqtda Qurolli Kuchlar akademiyasi bakalavriatida har yili jami 11 ta, ya'ni:

- 1) qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (*motoo'qchi bo'linmalari*);
- 2) qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (*Chegara qo'shinlari*);
- 3) qurolli Kuchlar bo'linmalarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni tashkillashtirish;

- 4) qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (*muhandislik qo'shinlari*);
- 5) qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (*radiatsion, kimyoviy va biologik muhofaza qo'shinlari*);
- 6) qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (*IIV qo'shinlari*);
- 7) aniqlovchi va qo'riqlovchi tizimlardan foydalanish bo'yicha qo'mondonlik-muhandislik faoliyati;
- 8) front orti ta'minoti taktik qo'mondonligi (*qo'shinlarning kiyim-kechak ta'minoti*);
- 9) front orti ta'minoti taktik qo'mondonligi (*qo'shinlarning oziq-ovqat ta'minoti*);
- 10) front orti ta'minoti taktik qo'mondonligi (*qo'shinlarning yoqilg'i ta'minoti*);

11) harbiy psixologiya ta'lim yo'nalishlari (*ixtisosliklari*) bo'yicha yuqori malakali harbiy kadrlar tayyorlanib, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi barcha vazirlik va idoralarda tuzilmalariga yuborilmoqda.

Akademiyada tahsil olayotgan kursantlar va tinglovchilarga harbiy, gumanitar va aniq fanlar bo'yicha yetarli bilim va ko'nikma berish, ularning fikrlash va boshqaruvchilik qobiliyatini rivojlantirish, jismonan chiniqtirish maqsadida 18 ta – harbiy xavfsizlik, harbiy san'at, harbiy boshqaruv va liderlik, harbiy razvedka, umumiy taktika, jangovar ta'minot, moddiy ta'minot, texnik ta'minot, Qurolli Kuchlarda axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik, chegara faoliyati, chegara

san'ati, qurollanish va otish, tabiiy fanlar, milliy iftixor va harbiy-vatanparvarlik, harbiy psixologiya va pedagogika, IIV qo'shinlarini tayyorlash, jismoniy tayyorgarlik va sport, tillar kafedralari faoliyat yuritmoqda.

Akademiyaga nomzodlarni qabul qilish tadbirlari mudofaa vazirining 2022-yil 7-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-dekabrda 775-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida amalga oshiriladi. Oliy harbiy ta'lim muassasalariga nomzodlarni sifatli tanlash va ularni o'qishga qabul qilish 3 bosqichli tizim asosida olib boriladi:

1. Harbiy-professional yo'naltirish.
2. Dastlabki saralab olish.
3. Test sinovlari.

**Harbiy professional yo'naltirish** tadbirlarida oliy harbiy ta'lim muassasasi va mudofaa ishlari bo'limi tomonidan yil davomida joylarda fuqaro yoshlarga Qurolli Kuchlar, harbiy ta'lim muassasalari va ularda tashkillashtirilgan o'quv faoliyati haqida umumiy ma'lumotlar yetkazilishi, yoshlar ongida harbiy hayotga bo'lgan qiziqishni shakllantirish borasida targ'ibot ishlari amalga oshiriladi.

**Dastlabki saralash tadbirlari** – fuqaro yoshlar (*talabalar*) uchun yashash joyidagi mudofaa ishlari bo'limlarida, harbiy xizmatchilar uchun xizmatni o'tash joyidagi harbiy qismlarda o'tkaziladi. 1-fevraldan 10-aprelga qadar amalga oshiriladigan ushbu bosqichda nomzodlar hujjatlari to'planib, o'rganiladi hamda yakka tartibda suhbat va birlamchi tibbiy ko'rik o'tkaziladi. So'ng mudofaa ishlari boshqarmalarida 11-apreldan 31-maygacha individual-psixologik o'rganish, umumijismoniy tayyorgarlik ko'rganini baholash, yakuniy tibbiy ko'rikdan o'tkazish ishlari olib boriladi.

Yuqoridagi 2 bosqichdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkaziladigan davlat test sinovlarini topshiradi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalariga test sinovlari natijalaridan qat'i nazar, tanlovdan tashqari dastlabki va harbiy professional tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgan quyidagi nomzodlar qabul qilinadi:

- xizmat vazifasini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning farzandlari;
- xalqaro va respublika olimpiadalari g'oliblari;
- "Eng ilg'or serjant" tanlovining respublika bosqichi g'oliblari.

Qurolli Kuchlar akademiyasi umumqo'shin qo'mondonlik fakultetida ta'lim jarayoni 4 yil davom etadi. Ushbu fakultetni muvaffaqiyatli yakunlagan kursantlarga diplom va "leytenant" harbiy unvoni beriladi hamda ular ofitserlik xizmatini o'tash uchun qo'shinlarga yo'llanma oladilar.

Bundan tashqari, akademiya oliy qo'mondonlik tarkibiga, tezkor-taktik ixtisosga ega oliy malakali harbiy, ilmiy pedagogik va ilmiy kadrlar tayyorlashga, tadqiqotlar o'tkazishga, shuningdek Qurolli Kuchlar uchun katta va oliy ofitserlarni tezkor-strategik tayyorlash, katta va oliy ofitserlarning kasbiy tayyorgarlik malakasini oshirish uchun harbiy fan muammolarini o'rganishda fundamental, qidiruv va amaliy tadqiqotlar o'tkazish, harbiy siyosat, Qurolli Kuchlar qurilishi va tayyorgarligi bo'yicha amaliy masalalarni tadqiq etishga mo'ljallangan

**Bizning manzil:** 100052, Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani Parkent ko'chasi, 21-uy.

**Qurolli Kuchlar akademiyasi axborot xizmati**

### HUJJATLARNI TAYYORLASH VA QABUL QILISH TARTIBI

Akademiyaga 25 yoshgacha bo'lgan ofitser harbiy unvoniga ega bo'lmagan harbiy xizmatchi va harbiy xizmatga majburlar; 17 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan, shu jumladan qabul yili 17 yoshga to'ladigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadi

#### 01 HARBIY-PROFESSIONAL YO'NALTIRISH

1-fevraldan – 10-aprelgacha fuqaro yoshlar (*talabalar*) uchun – mudofaa ishlari bo'limlarida; harbiy xizmatchilar uchun – xizmatni o'tash joyida

Hujjatlarni to'plash va o'rganish

Yakka tartibda suhbat

Birlamchi tibbiy ko'rik

#### 02 DASTLABKI SARALAB OLISH

11-apreldan – 25-maygacha

##### INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK O'RGANISH

- tavsiya etiladi
- tavsiya etilmaydi

##### UMUMIJISMONIY TAYYORGARLIK DARAJASINI BAHOLASH

3 km yugurish (daqiqo) >14:50

100 m yugurish (soniya) >13:55

Tumukda tortilish >7

>10

##### YAKUNIY TIBBIY KO'RIK

Nomzodning bilim yurtiga o'qishga yaroqliligi to'g'risida xulosa chiqariladi. Sog'lig'ining holatiga ko'ra bilim yurtiga "yaroqsiz" deb topilgan nomzodlar keyingi bosqichga o'tmaydi.

#### 03 TEST SINOVLARI

1-avgustdan – 15-avgustgacha

TEST SINOVLARI NOMZODLAR TANLANGAN HUJUDLARDA O'TKAZILADI

##### 1-BLOK Majburiy fanlar

Ona tili 10 SAVOL

Matematika 10 SAVOL

O'zbekiston tarixi 10 SAVOL

##### 2-BLOK Ta'lim yo'nalishiga mos fanlar

Matematika 30 SAVOL

Fizika 30 SAVOL

Har bir to'g'ri javob 3,1 ball 2,1 ball

##### IMTIYOZLAR

Muddatli harbiy xizmatni o'tab tegishli tavsiyanomlarga ega bo'lgan fuqarolarga

- 50% Fan olimpiadaning respublika bosqichida I, II va III o'rinlarni egallagan fuqarolarga
- 5% "Vatan tavajjohi" bolalar va o'smirlar harbiy vatanparvarlik barakatida erishgan yutuqlari uchun to'plangan umumiy ballarga qo'shimcha
- 5% Temurbeklar maktabi HAL bitiruvchilariga
- 30% Ilg'or serjant nominatsiyasi respublika bosqichi g'oliblari

OHTMga tanlovsiz

##### KVOTALAR

Amaldagi harbiy xizmatchilarning farzandlariga

- 5% "Mehribonlik" uyi va bolalar shaharchasi bitiruvchilariga
- 10% Xizmat majburiyatini bajarishda halok bo'lgan, yarador bo'lish natijasida nogiron bo'lgan harbiy xizmatchi va huquqini muhofaza qilish xodimlarining farzandlariga
- OHTMga tanlovsiz
- OHTMga tanlovsiz
- OHTMga tanlovsiz

Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohiblariga

Xalqaro matematika (IMO), fizika (IPHO), kimyo (IShO), biologiya (IBO), informatika (IOI), olimpiadalari g'oliblari OHTMga qabul komissiyasining qarori bilan OHTMga test sinovlarsiz va qo'shimcha imtihonsiz o'qishga qabul qilinadi



# Yangi O'zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi!

Mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati doirasida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga birlashtirilgan 399 ta chegaraoldi umumta'lim maktabi o'quvchilari hamda hududlardagi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida qator davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



Xususan, respublikamiz bo'ylab 10 ming nafardan ortiq o'quvchi-yoshni qamrab olgan 408 ta "Yosh chegarachilar" klubi a'zolari ishtirokida muntazam ravishda o'tkazilayotgan "Armiya – vatanparvarlik va jasorat maktabi", "Milliy armiyamiz yoshlar nigohida", "Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!" shiori ostida o'tgan tadbirlar ertamiz egalarini ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan ulg'ayishlari va harbiylikka bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishda muhim o'rin tutmoqda.

Bugungi kunda mazkur klub a'zolarining 160 nafardan ortig'i DXX Chegara qo'shinlari safida, yana 40 nafarga yaqini esa boshqa kuch tuzilmalarida faoliyat olib borayotgani mazkur yo'nalishdagi ishlar samaradorligining amaldagi ifodasi desak, yangilishmagan bo'lamiz.

Kelajagimiz bunyodkorlarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish maqsadida 2023-yilning iyun oyida Vazirlar



Mahkamasining "Respublika chegaraoldi shahar va tumanlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan "Yosh chegarachilar" klublari faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, shuningdek mazkur qarorga muvofiq, sentabr oyida DXX Chegara qo'shinlari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligining "Yosh chegarachilar" klublari o'rtasida harbiy-vatanparvarlik musobaqasini tashkil etish, musobaqa shartlari

va baholash mezonlarini belgilash to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, hayotga tatbiq etildi.

Ayni damda ushbu qarorlarning ijrosini ta'minlash maqsadida tarbiyachi ofitserlar tomonidan Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahri, Dehqonobod va Shahrisabz tumanlariga xizmat safarlari amalga oshirilib, harbiy qismlardagi mas'ullar tomonidan birlashtirilgan maktablarda "Yosh chegarachilar" klublari faoliyati qay yo'sinda tashkil etilayotgani, o'quvchilar bilan o'tkazilayotgan tadbirlarning sifati

va samaradorlik darajasi o'rganildi. O'rganish natijalari va tahlillar asosida kelgusida ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada jadallashtirish borasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar yuzasidan yo'riqnoma mashg'ulotlar o'tkazilib, tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

Shuningdek, xizmat safari davomida chegaraoldi hududlaridagi 6 ta umumta'lim maktabining 100 nafardan ortiq o'quvchi-yoshlari ishtirokida "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi" mavzusidagi davra suhbat tashkil etilib, samimiy muloqot chog'ida ertamiz egalarining ong-u shuurini yuksak vatanparvarlik, burch va sadoqat tuyg'ulari bilan to'ldirish, ularni kasbga yo'naltirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

– Biz maktablarda tashkil etilgan "Yosh chegarachilar" klublari faoliyatini aynan joylarga chiqqan holda, o'z ko'zimiz bilan ko'rib, mavjud muammo va kamchiliklarini o'rganishni, tashkiliy masalalarda ularga uslubiy va amaliy jihatdan yordam ko'rsatishni maqsad qilganmiz. Bu orqali klublarning yagona tizimda faoliyat olib borishiga, shuningdek "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasi yakdillik bilan sifatli tashkil etilishiga erishamiz, – deydi podpolkovnik Azizbek Ma'murov.

Yuqoridagi kabi tadbirlar Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida ham tashkil etilib, Xiva tumanidagi 7-umumta'lim maktabi va Amudaryo tumani Qilichboy ovulida joylashgan madaniyat saroyida bo'lib o'tgan suhbat harbiylar, mahalla faollari hamda yoshlarni "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak" degan shior ostida birlashtirdi.

Unda "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasining joriy yilgi mavsumini tashkil etish va mazkur jarayonda ahamiyat qaratilishi zarur bo'lgan jihatlar xususida to'xtalish barobarida, Termiz shahridagi "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseyiga o'qishga kirish tartibi, litsey faoliyati, unda yaratilgan shart-sharoit va qulayliklar hamda bitiruvchilarga beriladigan imtiyozlar xususida ma'lumot berilib, mavzuga oid videorolik namoyish etildi.

Respublikamiz bo'ylab chegaraoldi hududlaridagi yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan shu kabi tadbirlar tizimli ravishda o'tkazilmoqda.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari



Zamonaviy xavfsizlik va tahdidlarning rivojlanish shiddati kibersarhadlarga ko'chib o'tdi.

Endilikda jangovar kuchlarsiz butunjahon internet tarmog'idan foydalanib, u yoki bu davlatning muhim strategik obyektlariga kiberhujumlar amalga oshirish mumkin va buni kim uyushtirgani, qanday maqsad ko'zlanganini doim ham aniqlashning imkoniyati mavjud emas. Chunki texnologiyalar rivojlanishi kibermakonda anonim qolish uchun ham qator imkoniyatlarni yaratib bergan.

Misol uchun, dunyo bo'ylab tarqalib ketgan zararli virus fayllari va ular orqali zararlangan kompyuter va qurilmalar, bunday kiberjinoyatchilar uchun o'lja bo'lib xizmat qiladi. Kiberjinoyatchilar oddiy insonlar nomidan ularning kompyuter va internet manzillaridan foydalangan holda boshqa bir davlat obyektlariga hujumlarni amalga oshiradi va shu orqali o'zlarini yashirishadi. Demak, internetda istalgan foydalanuvchi o'zi bilmagan holda bunday hujumlar ishtirokchisiga aylanib qolishi mumkin. Shu sabab umumiy kiberxavfsizlik qoidalari va himoyalashning universal yechimlari ishlab chiqiladi.

Masalan, barchada bo'lishi shart bo'lgan antivirus dasturiy ta'minotining mavjudligi. Krek – (*pullik dasturni buzib, bepul ishlatish maqsadida zararlanib tarqatiladigan*) dasturlarni o'rnatmaslik, ishonchli va tekshirilgan manbalardan turli fayllarni yuklash, faqatgina rasmiy saytlardan fayllarni yuklash, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilgan turli fayllarni (*exe, msi, bat, dll, iso, lnk, ps, py*) ochmaslik va tarqatmaslik kabi juda muhim qoidalarga amal qilish zarur. Internet juda foydali va ishni

osonlashtiruvchi vosita, ammo undan to'g'ri foydalanishni bilish zarur. Oddiy fuqarolardan farqli o'laroq harbiy xizmatchilar uchun alohida xavfsizlik qoidalari va talablari qo'yiladi. Sababi, albatta ularning shaxsi va xizmat obyektlarining davlat ahamiyatiga molikligidadir.

Jumladan, harbiy xizmatchilar o'zlarining ijtimoiy sahifalarida shaxsiy va oilaviy yoki ish jarayonidagi suratlarini joylamasligi, shaxsiga doir ma'lumotlarida ism-familiya, manzili, oilasi haqidagi axborotlarni ochiqalmasligi kerak. Bu juda keng o'ylangan xavfsizlik talablaridir. Keling, bir misol bilan bularning nima uchun muhimligini tushunib olamiz.

Harbiy xizmatchi o'zining ijtimoiy tarmoqdagi sahifasida oilasi, shaxsi haqidagi turli suratlarni joylashtirib boradi, tasodifan u xizmat kiyimidagi suratlarini ham joylashtirdi va shu orqali xalqaro kiberjinoyatchilar e'tiboriga tushib qoladi.

Kiberjinoyatchilar bunday obyektlar uchun alohida hujum ssenariyalarini ishlab chiqishgan bo'ladi, xodimning telefon

qurilmasini zararlash orqali uni doimiy kuzatishadi va u xizmat qilayotgan harbiy qism manzili va barcha telefon qurilmasidagi fayllar va suratlarni qo'lga kiritishadi. Keyingi bosqich harbiy qismdagi boshqa xizmatchilar yoki u yerdagi kompyuterlar bo'lishi mumkin. Shu sabab xodim telefon qurilmasiga turli ijtimoiy muhandislik (*inson qiziqishlari va xarakteridan foydalanib unga ta'sir ko'rsatish*) hujumi orqali "shtab yoki qo'mondonlikdan yuborilgan xabar .exe" kabi ko'rinishdagi zararli faylni yuklashadi. Xodim ushbu faylni ishxonasidagi kompyuterda



ishga tushiradi va bu orqali harbiy qismdagi o'ta maxfiy hisoblangan ma'lumotlarning kiberjinoyatchilar qo'lga yetib borishini ta'minlaydi.

Holat juda murakkab ko'rinishi mumkin, ammo hammasi umuman sezilmasdan, odatdagidek amalga oshib ketishi mumkin, shu sabab har qanday holatda standart xavfsizlik qoidalari va harbiy xizmatchilar uchun alohida talab qilinadigan muhim qoidalarga amal qilish zarur, jumladan:

- 1) harbiy xizmatchilar o'zi va oilasi haqidagi ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirmasligi;
- 2) internet tarmog'idan foydalanishda tekshirilmagan va tasdiqlanmagan saytlar va resurslardan turli ilova va fayllarni ko'chirib olmasliklari;
- 3) imkon qadar ijtimoiy tarmoqlardan yiroq bo'lishi (*chunki bunday ilovalar telefon qurilmasidagi barcha fayllar va joylashuv haqidagi ma'lumotlarni yig'ishadi*);
- 4) xizmat vaqtida va maxsus obyektlar ichida shaxsiy telefon va kompyuter qurilmalaridan foydalanmaslik;
- 5) kompyuter va telefon qurilmalarida doimiy antivirus vositalarini o'rnatish va yangilab yurish;
- 6) xizmat hujjatlari va maxsus topshiriqlar haqidagi fayllarni shaxsiy kompyuter va telefon qurilmalarida saqlamaslik kabi juda muhim qoidalarga rioya qilishlari zamonaviy kiberjinoyatchilardan himoyalashning eng sodda yo'li hisoblanadi.

Kibersarhadlarda virtual janglarning ko'rinmasligi va faqatgina zarar yetkazilgandan keyingina bunday hujumlarni aniqlash imkoniyati bu sohaga juda jiddiy e'tibor berishni talab qiladi. Demak, bunday hujumlarni faqatgina zarar yetkazilganidan keyingina aniqlash mumkin ekan.

Zamonaviy armiya va kibersarhadlarni himoya qilish uchun turli davlatlar o'zining kiber armiyasini va kiber harbiy xizmatchilar guruhlarini

tayyorlashadi va doimiy rivojlantirib borishadi. Bugungi texnologiyalarning doimiy evolyutsiyasi bilan axborot va kommunikatsiyalarni har qachongidan ham optimallashtirish, mukammallashtirish mumkin, natijada turli kiberarmiyalar va ularning ko'rinmas kuchli qo'shiniga tegishli bo'lgan juda katta hajmdagi hujumlar kibersarhadlarimizga yo'naltirilishi mumkin.

O'tgan 2023-yilning 7-aprel kuni Amerika razvedka idoralari tomonidan tayyorlangan maxfiy hujjatlarning tarqalib ketishi dunyo bo'ylab juda keng muhokamaga sabab bo'ldi. AQSh harbiylari tomonidan tuzilgan va Ukrainadagi urushga tegishli deb aytilgan ushbu ma'lumotlarda Kiyevga G'arb qurollarining yetkazib berilishi, jangovar harakatlarning borishi, Ukraina va Rossiya harbiy bo'linmalarining pozitsiyalari va o'q-dorilar zaxiralari haqidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan.

Kiberjinoyatchilar bu ma'lumotlarni qayerdan va qaysi yuqori lavozimdagi harbiy xizmatchidan qo'lga kiritishgani haqida hech qanday ma'lumot ochiqanmadi, Pentagonda ham bu ma'lumotlarning tarqalishi bo'yicha bir necha marta ichki tekshiruvlar amalga oshirilgan.

Sohaning muhimligi va har bir harbiy xizmatchining o'z hayoti, oilasi va davlat xavfsizligiga bevosita mas'ulligini bunday misollar bilan juda ko'p keltirish mumkin. Shaxsiy hayotingizni virtual olamda ham xavfsiz saqlang!

**Malik QURBONOV,**  
"CYBER-BRO"  
kiberxavfsizlik kompaniyasi asoschisi

# KIBERXAVFSIZLIK QOIDALARI



Bugungi kunda zamonning tezlashganini ro'kach qilib, pul topish va oila tebratishdek mas'uliyatli vazifani yelkasiga yuklagan otalarning farzand tarbiyasi uchun vaqt ajrata olmayotganidan nolish qolishlariga ko'p bora guvoh bo'lmoqdamiz. Bunday holatlar harbiy xizmatchilar orasida ham uchrab turadi. Ammo bugungi qahramonimiz 12 yoshli Shukronaning erishgan yutuqlarida dadasi I darajali serjant Muzaffar Karimov va onasi – ingliz tili o'qituvchisi Malohat Ahmedovaning o'rni beqiyos.

# “Armonli orzum ushaldi”

Turmush tarzining har bir soniyasini rejalashtirishga odatlangan Muzaffar aka va Malohat opa qizini besh yoshidan “Karate” to'garagiga yetaklab borishgan edi. Mana oradan yetti yil o'tib Shukrona 6 karra O'zbekiston va bir karra jahon chempionligini qo'lga kiritdi. Murabbiyning sa'y-harakati hamda ota-onasining motivatsiyasi bilan yutuqlarga erishayotgan yosh tirishqoq sportchi qizning hayoti va faoliyatiga nazar tashlaymiz. Bolalari uchun vaqt ajrata olmayotganidan nolishdigan ayrim insonlar uchun bu oilaning turmush tarzi ibrat bo'lsa, ne ajab?

## IZLASANG IMKON, XOHLAMASANG BAHONA TOPILADI

– Harbiy libosni kiyganimga 20 yil bo'libdi. Sharafli va mas'uliyatli kasbimda turli holatlarga duch kelganman. Shu kunlarni boshdan kechirar ekanman, faoliyatimda ham, oilamda ham mashaqqatli va xursandchilikka sabab bo'lgan paytlarim ko'p bo'ldi. Nima bo'lgan taqdirda ham, erkak hech qachon erligini yo'qotmasligi kerak. Qayerda bo'lishidan qat'i nazar, oilaning tinchligi va farzandlar kelajagiga bo'lgan e'tibor bir lahza bo'lsin, unga tinchlik bermasligi lozim, – deydi I darajali serjant Muzaffar Karimov.

– Izlasang imkon, xohlamasang bahona topiladi. Ishda bo'lish degani oilaning mas'uliyatidan ozod etmaydi. O'zim ham kasbimdan ozmi-ko'pmi kamol topdim. Do'stlar orttirdim. Farzandlarimning jamiyatdagi o'rni bizdan bir pog'ona bo'lsa ham, yuqori bo'lishi uchun ayolim bilan birgalikda harakatdan to'xtayotganimiz yo'q. Ming shukurki, sa'y-harakatlarimiz sekin-asta o'z samarasini bera boshladi.



O'g'il bola borki, yoshligidan sportga qiziqadi. Ayniqsa, jangari filmlardagi bosh qahramonning uddalab bo'lmas topshiriqlarni bajarayotgan holatdagi xatti-harakatlari yoshlarni qo'l jangi sport turiga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi. Men ham xuddi o'sha yoshlar singari sportga juda qiziqqanman. Ammo bolaligim chekka qishloqda o'tgani sababli, bunday to'garaklarga qatnashish imkonim bo'lmadi. Bolalikdagi orzum armonga aylandi. Biroq insonga shunday imkoniyat berilar ekan, o'zi erisha olmagan orzularini farzandlarida ko'rishni juda istar ekan. Armonga aylangan orzumning ushlishini shu qadar sabrsizlik bilan kutgan ekanmanki (*kuladi*), Shukronani “Karate” to'garagiga olib borganimizda 5 yashar edi. Tasavvur qilyapsizmi, 5 yoshli qizchani aksariyat ota-onalar ko'chaga chiqarmaydi. Biz esa sal qattiqqo'llik qildik va to'garakka berdik. Boshida qizimiz sal qiynaldi. Ayniqsa, birinchi musobaqada tatamiga tushgan Shukrona bir necha yil oldindan qatnashib kelayotgan raqibiga to'qnash kelgandi va bir lahzada mag'lub bo'lgan. Hatto nima bo'layotganini tushunishga ham ulgurmagani. Hech esimdan chiqmaydi, o'shanda rosa yig'lagan edi...

– Meni “Karate” to'garagiga olib borishgan paytlarni to'liq eslolmayman. Lekin birinchi musobaqada kaltak yeganim esimda. Shunda dadam menga keyingi safar, albatta g'alaba qozonishimni aytgan edi. Xuddi shunday bo'ldi. Shundan keyin hali biror marta mag'lubiyatga uchramadim, – deydi Shukrona Karimova. – Dadam va oyim menga juda ko'p yordam berishadi.

Mashg'ulotlardan charchab kelgan paytlarim oyim meni uy ishlaridan ozod etib, dam olishimga imkoniyat berishadi. Maktabda ham a'lo baholarga o'qiyman. O'qimasligimga qo'yishmaydi ham (*kuladi*). Chunki oyim maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydi.

O'zinning o'qituvchilarim musobaqa paytlari menga imkon bersa ham, oyim esa qoldirgan darslarimni o'zlashtirishimni juda qattiq nazorat qiladi.

– Shukrona dadasiga boshqacha mehribon. Qaysi paytda ishdan qaytishlaridan qat'i nazar, dadasini kutadi. Yo'qsa, ko'ngli joyiga tushmaydi. Qizimizning sportda erishayotgan yutuqlari bizni albatta quvontiradi. O'ziga bo'lgan ishonchining yuqoriligi ayniqsa, menga ko'proq yoqadi. Sportga borishidan avval erka va injiq edi. Mashg'ulotlar va natijalar Shukronaga bosiqlik, intizom, sabr hamda matonatni o'rgatdi. Gohida mashg'ulotlardan charchab keladi. Hatto tayyor ovqatni yeyishga madori qolmaydi. Stol atrofida o'tirganicha uxlab qolgan paytlari ko'p bo'lgan. Shunday kezlarda sportni tashlashini xohlab qolaman. Ammo u hech qachon sportni tashlamasligini bot-bot takrorlaganicha yana sevimli zaliga oshiqadi, – deydi Malohat Ahmedova.

– Sport jarohatlardan xoli emas. Ona sifatida yuragimni hovuchlab o'tiraman. Lekin yangi natijalarni zabt etib kelganini ko'rib, ko'nglim taskin topadi. Gohida turmush o'rtog'imga Shukronani qiz bolaga mosroq kasbga yo'naltirishimni kerakligini uqtirishga harakat qilaman. Ammo ular xuddi qizim singari qat'iy ohangda “yo'q” deydi. Ayol ekanman, ona ekanman, men ham qat'iy ohangda “xo'p bo'ladi” deymanda (*kuladi*), yana ishimda davom etib ketaveraman.

## FAXR VA IFTIXOR

– Meni va kasbimni to'g'ri tushungani uchun oilamdan minnatdorman. Kasbimdan faxrlanaman. Ota sifatida bolaligimdagi orzumga qizim orqali erishayotganimga g'ururlanaman. Vaqtida har bir narsaning qadriga yetish kerakligini anglab yetganim mening omadim deb o'ylayman. Kelajakni meni tushungan insonlar bilan birga qurayotganim – bu mening baxtim. Koinot nuqtayi nazari bilan qaraganda, bir lahzalik umrimiz davomida nimalardir qilishga ulgurib qolayotganimga faxrlanaman. Farzandlarim mening iftixorim. Ularning kamolini ko'rib, erishayotgan natijalaridan ko'nglim tog'dek ko'tariladi. Kelajakda Olimpiada chempionligini qo'lga kiritishini niyat qilaman. Barcha harakatlarim shu maqsadga qaratilgan, – deydi I darajali serjant Muzaffar Karimov.

– Ayolga kerakli bo'lgan baxtning barchasi menda mujassam. Muzaffar aka bilan turmush qurganimdan va bizga shunday farzandlarni in'om etgani uchun taqdirimdan roziman, – deydi Malohat Ahmedova. – Turmush o'rtog'im juda mehribon inson va namunali ota. Er-xotin birgalikda bir maqsad sari qadam tashlayotganimiz meni quvontiradi. Oilam bilan faxrlanaman!

– Esimni taniganimga buyon dadamning harbiy libosiga havas qilganman, – deydi Shukrona Karimova. – Havasim orzuga aylandi. Men albatta, harbiy sportchi bo'laman. Xuddi dadam singari harbiy libos kiyaman. Ota-onam mening faxrim. Ayniqsa, dadamning kasbidan juda faxrlanaman.

**Sherzod SHARIPOV,**  
“Vatanparvar”





**Donishmandlarning shunday gapi bor: "Inson qancha yashagani bilan emas, balki bu hayotda qanday ezgu, xayrli ishlari, Vatan ravnaqi yo'lida qilgan xizmatlari bilan qadrlanadi". O'z xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan marhum mayor Sulton Yakubov yosh bo'lsa-da, yaqinlari va yurtdoshlari orasida qadr topib, mangu xotiraga aylangan insonlardan biridir.**

## QALBLARDA BARHAYOT O'G'LOK

1982-yilning 3-mart sanasi. Ne'matjon akaning uyi erta tongdan shodiyonaga, quvonchga to'ldi. Bu xursandchilikning sababi ko'pdan buyon intiqlik bilan kutilayotgan Sultonjonning tug'ilishi edi. Dunyoga kelishi bilan yaqinlarining dilini xushnud etgan bolakayni barcha birdek yaxshi ko'rardi, ardoqlardi. Uning beg'ubor bolaligi Toshkent viloyatining Ohangaron tumanida o'tdi. Maktab davridayoq o'zining o'tkir zehni, ma'lumotni tezda ilg'ab olishi, bilim olishga chanqoqligi va mehnatsevarligi bilan tengdoshlaridan ajralib turardi, shuning uchun hamma uni namuna sifatida ko'rsatardi.

– Sulton yaxshi o'qirdi, sinfdoshlari orasida obro'-e'tiborga va o'qituvchilarning hurmatiga sazovor edi. Men unga nemis tilidan dars berganman. Sulton chet tilini juda yaxshi ko'rib, darslarni yaxshi o'zlashtirardi, – deya xotirlaydi Ohangaron tumanidagi 4-umumta'lim maktabi direktori Lyubov Shmolyova.

Sulton bolalikdan harbiylikka mehr qo'yib ulg'ayadi. Mana shu orzusi sabab 2000-yilda Toshkent oliy umumqo'shin-qo'mondonlik bilim yurti

(hozirgi Qurolli Kuchlar akademiyasi)ga o'qishga kiradi va uni 2004-yilda muvaffaqiyatli tamomlaydi.

Yosh leytenant Sulton Yakubov ilk xizmat faoliyatini Sharqiy harbiy okrugda boshladi. Qo'mondonlik tomonidan o'ziga yuklatilgan vazifalarni a'lo darajada bajaradigan harbiy xizmatchi tez orada barchaning e'tiboriga tushadi. Shunday qilib, u Xitoy Xalq Respublikasining Qurolli Kuchlari akademiyalaridan biriga o'qishga yuboriladi, o'qishni tamomlaganidan so'ng Jizzax viloyatida joylashgan harbiy qismlarning biriga mas'ul lavozimga tayinlanadi.

2008-yilda qahramonimiz uylanadi. Kelin ham begona emas – u qiz Sultonlarga qo'shni xonadonda yashardi. Ismi Svetlana edi. Ular bolalikdan do'st bo'lishgan. Oradan bir qancha yillar o'tib, o'rtadagi do'stlik rishtasi sevgiga aylandi. Ular Samira, Ilvina va Valeriya ismli farzandlar ko'rishadi. Bu oilaga ko'pchilikning havasi kelardi. Mehribon va oqila turmush o'rtog'ining ishonchi hamda qo'llab-quvvatlashi tufayli Sulton ota-onasidan olisda bo'lsa-da, harbiy xizmatning barcha qiyinchiligini sabot bilan yengib, topshirilgan vazifani sidqidildan bajardi.

2016-yilning 18-oktabr kuni mayor Sulton Yakubov bo'lgan harbiy vertolyot maxsus vazifani bajarish chog'ida halokatga uchraydi. O'z ishining ustasi bo'lgan tajribali harbiy xizmatchi, oilaning suyakli o'g'li, mehribon er va otaning hayoti shu tarzda fojiali yakunlandi.

“...Uzoq vaqt yashaydigan odamlar bor, lekin buni hech kim his qilmaydi. Mayor Sulton Yakubovga o'xshaganlar borki, kam yashasa-da, ularning ortida oilasi, do'stlari, oila a'zolarining yorqin xotirasi saqlanib qoladi”, – dedi Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtini 2004-yilda tamomlagan podpolkovnik Artur Babajanov.

Ha, Sulton Yakubov yaxshi inson sifatida do'stlari va xizmatdoshlari qalbidan chuqur joy egallagandi. Vafotidan so'ng u O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan, “Jasorat” medali bilan taqdirlandi.

2023-yilning 13-oktabr kuni marhum mayor S. Yakubovning xotirasini abadiylashtirish maqsadida Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi ko'chalarning biriga uning nomi berildi. O'sha tadbirda uning onasiga so'z berilganda, “Sulton o'g'lim vafot

etmagan, mana qanchadan-qancha o'g'illarimni ko'rib turibman. Barcha harbiy xizmatchilar, yurt posbonlari mening farzandlarim”, – deya faxrlanib so'zladi. Bu so'zlardan so'ng jaranglagan qarsaklar sadosi yuraklardan yuraklarga ko'chdi. Shunda tushundimki, marhum harbiy xizmatchidagi jasorat, Vatanga bo'lgan sadoqat va mehr-muhabbat tuyg'ulari u tarbiya topgan oilada singdirilgan. Shunday mardlarni dunyoga keltirgan, ularga tarbiya bergan otanalarga boshimiz yerga tekkuncha ta'zim qilamiz.

Marhum mayor Sulton Yakubov Qurolli Kuchlar akademiyasining faxridir. Uning xotirasiga hurmat bajo keltirib, u o'qigan 2-kursantlar batalyonida “Xotira burchagi” yaratilgan. Bu “Xotira burchagi” barcha kursantlarni kelajakda tanlagan sohasining yetuk mutaxassislari bo'lib, yurtimizni har qanday xavf-xatarlardan himoya qiladigan, mamlakatimizning mudofaa qudratini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shadigan, mahoratli harbiy xizmatchi bo'lishga doim ruhlantirib turadi.

**Nodirjon ORTIQOV,**  
Qurolli Kuchlar akademiyasi III bosqich kursanti

### Rahbar va yoshlar



## ILK HARBIY KO'NIKMALAR

Milliy armiyamizda harbiy-vatanparvarlik tadbirlarining ko'plab o'tkazilishi va ularda yoshlarning ishtirok etishi o'sib kelayotgan yosh avlodning Vatan himoyasiga bo'lgan qiziqishi ortishiga, ona Vatanga muhabbat tuyg'usi bilan ulg'ayib, komil insonlar bo'lib yetishishiga katta hissa qo'shadi.

Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida O'zbekiston davlat san'at muzeyi, Yoshlar ishlar agentligi Zangiota tuman bo'limi, tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi hamda keng jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi tashkil etildi.

Tadbirda harbiy xizmatchilar va kursantlar, O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi talabalari hamda Zangiota tumanidagi “Vatan tayanchi” bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a'zolari, shuningdek o'quvchi-yoshlar ishtirok etishdi.

Dastlab mehmonlar harbiy instituti faoliyati, kursantlarning ta'lim olishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar, zamonaviy o'quv sinf xonalari, ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari hamda muzey, sport majmuasi bilan yaqindan tanishdilar. Buyuk sarkardalarimiz nomlari bilan tashkil etilgan tematik xonalarda kursantlar va o'quvchi-yoshlar ishtirokida davra suhbatlari tashkil etildi.

Shundan so'ng tadbir ma'naviyat markazida davom etdi. Ochiq muloqot tarzida o'tkazilgan “Rahbar va yoshlar” uchrashuvida, yoshlar o'zlarining qiziqirgan savollariga to'liq va atroflicha javob olishdi.

Shuningdek, O'zbekiston davlat san'at muzeyi tomonidan tashkil etilgan san'at asarlari, kursantlar yaratgan robototexnika ko'rgazmalari, maktab o'quvchilari tayyorlagan sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Tadbir so'ngida faol ishtirok etgan tadbir ishtirokchilari hamda hamkor tashkilotlar harbiy institut boshlig'i tomonidan taqdirlandi. “Impuls” harbiy ansambli jamoasining kuy va qo'shiqlari barchaga xush kayfiyat ulashdi.

**Mayor Sherqo'zi XAKIMOV**  
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti



# MAHORAT BELLASHUVI

Mamlakatimizda oilalar mustahkamligini ta'minlash, milliy qadriyat hamda urf-odatlarini keng targ'ib etish maqsadida ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda. Shu o'rinda Mudofaa vazirligi qo'shinlarida harbiy xizmatchilar oilalarida ijtimoiy muhitni yaxshilash, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, bir so'z bilan aytganda, oila farovonligini ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda. Mudofaa vazirligi miqyosida "Men namunali harbiy oila bekasiman" shiori ostida o'tkazilayotgan "Balli, ayollar!" ko'rik-tanlovi ham bu boradagi chora-tadbirlarning uzviy davomidir.



Nukus garnizonidagi harbiy qismlarning birida bo'lib o'tgan "Balli, ayollar!" ko'rik-tanlovining dastlabki bosqichida olti nafar harbiy xizmatchining turmush o'rtog'i g'oliblik uchun bellashdi. Tanlovning "Men baxtiyor ayolman!" deb nomlangan 1-shartida ishtirokchilar san'atkorlik mahoratini qo'llab, milliy raqs, qo'shiq, she'r, xalq o'yinlari orqali o'z oilalarini tanishtirgan bo'lsa, "Pazanda bekajon" deb nomlangan ikkinchi shartda oshpazlik sirlaridan qanchalik boxabar ekanini mazali salat tayyorlash va chuchvara tugish bilan namoyon etishdi.

Ko'rik-tanlovning "Ayol - go'zallik timsoli!" deb nomlangan shartida ishtirokchilar milliy soch turmagini yaratish bo'yicha bellashdi. "Darts" shartida sport bilan hamnafas ekanini 3 metr masofadan besh dona nayzani mo'ljalga uloqtirish orqali ko'rsatdi.



"Uddaburon ayol" va "Bahribayt" hamda hakamlar tomonidan berilgan qo'shimcha shart qiziqarli bo'ldi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, "Balli, ayollar!" ko'rik-tanlovining harbiy qism bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan oila bekasi Shimoli-g'arbiy harbiy okrug bosqichida harbiy qism sharafiga himoya qiladigan bo'ldi.

Shuningdek, tanlov ishtirokchilari "Eng dono beka", "Eng mehribon beka", "Eng chaqqon beka", "Eng orasta beka" hamda "Eng quvnoq beka" kabi nominatsiyalar bo'yicha rag'batlantirildi. G'olib va sovrindor ishtirokchilar faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
matbuot xizmati**

## Xalq va armiya - bir tan-u bir jon!

## Festival

# Vatanparvarlikka chorladi

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent shahar kengashi tasarrufidagi Chilonzor tumani o'quv sport-texnika klubida "Xalq va armiya - bir tan-u bir jon!" mavzusida harbiy-vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.



Mahalla yoshlari, umumta'lim maktablaridagi "Vatan tayanchi" otryadlarining a'zolari, harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar faxriylari ishtirok etgan ushbu tadbirni "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent shahar kengashi raisi Farhod Alimxodjayev ochib berdi.

Tadbir davomida 32 yil muqaddam O'zbekiston Qurolli Kuchlarining tashkil etilishi tarixi, rivojlanish bosqichlari va milliy armiyamizning yuksalishida "Vatanparvar" tashkilotining o'rni to'g'risida ma'lumotlar berildi. Ishtirokchilar tashkilot tomonidan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan texnik kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va ushbu

yo'nalishlarda yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida tushunchalarga ega bo'ldilar.

Uchrashuv davomida Qurolli Kuchlar faxriylari va yoshlar Vatanga muhabbat, mehnatga mas'uliyatli munosabat hamda harbiy xizmatga hurmat mavzularida suhbat qurdi.

"Vatanparvar" tashkiloti sport seksiyalarining ko'rgazmli namoyishi yig'ilganlarda ulkan taassurot qoldirdi. Shuningdek, yoshlar o'rtasida pnevmatik quroldan o'q otish bo'yicha kichik musobaqa tashkil etildi.

Tadbir so'ngida Vatan oldidagi muqaddas burchini ado etish chog'ida alohida namuna ko'rsatgan, harbiy xizmatchi va Qurolli Kuchlar faxriylariga "Vatanparvar" tashkilotining esdalik sovg'alari topshirildi.

# Mingdan ziyod yoshni jamladi

Sharqiy harbiy okrugga qarashli harbiy qismda "Vatanparvar" tashkiloti Andijon viloyati kengashi va bir qator kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda harbiy-vatanparvarlik festivali o'tkazildi.



Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ongiga harbiy xizmatga hurmat tuyg'ularini singdirish maqsadida tashkil etilgan ushbu tadbirda mingdan ziyod yosh, jumladan oliy o'quv yurtlari talabalari hamda umumta'lim maktablarining o'quvchilari ishtirok etdi.

Tadbirda harbiy texnikalar, qurol-yarog'larning ko'rgazmalari hamda harbiy orkestr tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar va harbiy xizmatchilarning jangovar chiqishlari yosh avlodning harbiylik kasbiga bo'lgan qiziqishini oshirdi.

"Vatanparvar" tashkilotining o'quv avtomobillari hamda "Motokross", "Karting", "Duatlon", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Aviamodel", "Raketamodel", "Kemamodel" kabi sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha tashkil etilgan seksiyalarning faoliyati namoyish etilishi tadbirga ko'tarinki ruh bag'ishladi.

Yig'ilganlarga tashkilotda yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar va imtiyozlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi.



Zahiriddin Muhammad Bobur izidan

# Okrug bosqichi g'oliblari aniqlandi

Markaziy harbiy okrugning ma'naviyat va ma'rifat markazida harbiy xizmatchilar o'rtasida jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan betakror siymo, shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi, milliy madaniyatimiz hamda xalqimizning adabiy-estetik tafakkuri shakllanishi va ilm-fani, davlatchiligi tarixini o'rganishga yo'naltirilgan "Zahiriddin Muhammad Bobur izidan" nomli tanlovning okrug bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlovda okrug tasarrufidagi harbiy qism va muassasalardagi harbiy xizmatchilardan tashkil etilgan 15 ta jamoa vakillari ishtirok etdi. Tanlov uchta – "Zahiriddin Muhammad Bobur – o'zbek mumtoz adabiyotining buyuk namoyandasi", "Zahiriddin Muhammad Bobur mohir va iste'dodli sarkarda", "Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistondagi Boburiylar imperiyasi asoschisi" shartlari bo'yicha o'tkazildi.

Ushbu shartlarda ishtirokchilarni odilona, shaffof baholab borish uchun O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, "Nuroni" jamg'armasi Samarqand shahar bo'limi vakillari, O'zbekiston – Finlyandiya pedagogika instituti professorlari hamda Samarqand viloyati axborot-resurs markazi xodimlari hakamlik qildi.

– Tanlovda biz, ishtirokchilardan bilimli va ziyrak bo'lishimiz talab qilingan edi, tanlovga tayyorgarlik ko'rayotganimda buyuk bobokalonimiz Zahiriddin

Muhammad Bobur hayoti, harbiy jang san'ati va ijodini o'rganar ekanman, yana bir bor faxr hissini tuydim. Boy tariximiz, buyuk ajdodlarimiz borligidan faxrlanaman, – deydi kichik serjant Umidjon Abdumajidov.

Qizg'in va bahs-munozaraga boy o'tgan musobaqada 3-o'rinni Samarqand garnizonidagi harbiy qism harbiy xizmatchilari, 2-o'rinni Qurolli Kuchlar Kichik mutaxassislarini tayyorlash markazining kursantlari, 1-o'rinni Jizzax garnizonidagi harbiy qism harbiy xizmatchilari egalladi.

G'oliblar diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

**Parvina ABUDHAMIDOVA,**  
Markaziy harbiy okrug  
matbuot xizmati bosh mutaxassisi

Yoshlar sayli

## Vatanparvarlik vujudimizda

Harbiy prokuratura organlari, kuch tuzilmalari va hokimliklar hamkorligida respublikamiz bo'ylab chegaraoldi hamda olis hududlardagi mahalla yoshlari ishtirokida harbiy-vatanparvarlik sayillari o'tkazilmoqda.



Shunday tadbir Buxoro harbiy prokuraturasi va mutasaddilar hamkorligida "Vatanparvarlik vujudimizda" shiori ostida tashkil etildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi o'rinbosari Q. Isroilov qatnashdi.

Harbiy orkestr sadolari, harbiylarning qo'l jangi chiqishlari, maxsus texnika, kiyim-bosh, qurol-aslaha va anjomlarning taktik xususiyatlari bo'yicha ko'rgazmalar tashkil etildi.

Shuningdek, yoshlar sport turlari bo'yicha kuch sinashdi va g'oliblar munosib taqdirlandi.

**Adliya podpolkovnigi  
Muhammadjon BOZARMIRZAYEV,**  
Buxoro harbiy prokuratori



Harbiy-vatanparvarlik

## Faol yoshlar e'tirof etildi



Namangan harbiy prokuraturasi va kuch tuzilmalari hamkorligida Pop tumanining chegaraoldi hududida harbiy-vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.



Unda Qo'shminor va Rezaksoy mahallalari yoshlari, hamda maktab o'quvchilari ishtirok etdi.

Tadbirda Respublika Harbiy prokuraturasi vakili vatanparvarlik, tinchlik qadri, yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlik, Vatan himoyasida harbiylarning o'rni haqida gapirib o'tdi.

Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining ko'rgazmali chiqishlari barchaga manzur bo'ldi. Yoshlar o'rtasida arqon tortish, tosh ko'tarish, armrestling kabi sport turlari bo'yicha bellashuvlar o'tkazildi.

O'qishda faol bo'lgan o'quvchi-yoshlar va g'oliblar taqdirlandi. Tadbir yakunida harbiy xizmatga ishtiyiqi yuqori bo'lgan, chaqiruv yoshidagi yoshlarga harbiy xizmatning afzalliklari haqida ma'lumot berildi.

**Adliya polkovnigi Davlatyor RAXMONOV,**  
Namangan harbiy prokuratori

Talaba xavfsizligi oyligi

## Ijarada yashovchilarning xonadonlari o'rganilmoqda

Termiz davlat universitetida olis tumanlar va qo'shni viloyatlardan kelib tahsil olayotgan talabalar yotoqxona va ijara uylarida istiqomat qilib kelmoqda. Ushbu talabalarning holidan muntazam ravishda xabar olish, muammo va sharoitlarini o'rganib borish ishlari tizimli ravishda yo'lga qo'yilib, tegishli mas'ullar tomonidan ijara uylariga tashriflar amalga oshirilmoqda.



Talaba xavfsizligi oyligi doirasida universitetning talabalarni turarjoy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtirish bo'lim boshlig'i Fayzulla Hamidov, viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari, universitet mutasaddi rahbarlari hamda barcha fakultet tyutorlari tomonidan ijara xonadonlarida turuvchi talabalarning yashash sharoitlari o'rganildi. Shuningdek, ijara shartnomasining afzalliklari tushuntirilib, talabalarning har biri bilan ochiq suhbat tashkil etildi.

Tadbir davomida kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish maqsadida yong'in xavfsizligi, is gazi va botulizm kasalligi, uning oldini olish bo'yicha talaba-yoshlarga batafsil tushuntirish ishlari olib borilib, zarur tavsiyalar berildi. Ijara xonadonlaridagi isitish tizimlari ko'zdan kechirilib, is gazi bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noxush holatlar bo'yicha hayotiy misollar keltirildi, talabalarga ushbu masalada juda e'tiborli bo'lish zarur ekanligi alohida uqtirilib, is gazidan zaharlanishning oldini olish maqsadida eslatmalar va bukletlar tarqatildi.

Xonadon egalari, talabalarga qulayliklar yaratish borasida tavsiya va maslahatlar berildi.

**Jamshid NAZAROV,**  
Termiz davlat universiteti  
O'zbek filologiyasi fakulteti tyutori





Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy yuksalishi va barkamolligiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Yangiyer shahri o'quv sport-texnika klubi jamoasi tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, shahar yoshlarini ijtimoiy foydali hamda ommaviy vatanparvarlik ishlariga jalb etish maqsadida bu yo'nalishda turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar va davra suhbatlari, sport musobaqalari tashkil etilmoqda.

- Tashkilotimizda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda, ularning sog'lom shakllanishlariga alohida e'tibor qaratilyapti, - deydi O'STK boshlig'i Kamoliddin Kadirov.

# TO'GARAKLARGA QIZIQISH ORTMOQDA

- Shuning uchun klubda "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Duatlon", "Karting" hamda "Avtoralli" kabi sportning texnik va amaliy turlaridan seksiya hamda to'garaklar ishlab turibdi. Buning natijasida tizim tashkilotlari orasida o'tkazilayotgan turli yo'nalishdagi musobaqalarda yangiyerliklar muvaffaqiyat qozonib, faxrli o'rinlarni egallamoqda. Birgina o'tgan yili karting bo'yicha Namangan viloyatida o'tkazilgan respublika musobaqasida ishtirok etgan sportchimiz Sergey Bogdasarov 1-o'rinni egallagan fikrimiz isbotidir.

Ayni paytda bevosita klub ma'muriyati tashabbusi bilan yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qilish maqsadida Yangiyer shahridagi turli tashkilot va muassasalar o'rtasida sport musobaqalari muntazam ravishda o'tkazilyapti. O'z navbatida, klubda faoliyat ko'rsatayotgan sport seksiya va to'garaklariga ishtirokchilarning qiziqishi ortib bormoqda. Shu bois

klubda sportni ommalashtirish maqsadida turli sport tadbirlari tashkil etilyapti.

Jumladan, joriy yilning 3-fevral kuni Yangiyer shahri hokimligi, IIB probatsiya xizmati, Yoshlar ishlari agentligi hamda mahallalar bilan hamkorlikda ehtiyojmand oilalar farzandlari, uyushmagan yoshlar va probatsiya ro'yxatida turuvchi shaxslar ishtirokida havo miltig'idan o'q otish, velopoyga hamda karting bo'yicha musobaqa tashkil etildi. Do'stona ruhda o'tkazilgan musobaqa barcha ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi. Unda g'olib bo'lgan qatnashchilarga tadbir tashkilotchilari tomonidan qimmatbaho va esdalik sovg'alalar taqdim etildi. Shuningdek, ishtirokchilar o'quv sport-texnika klubida yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar.

Bundan tashqari, tashkilot faoliyatining yana bir

muhim yo'nalishlaridan biri xalq xo'jaligining turli tarmoqlari uchun malakali haydovchilar tayyorlab berishdir. Birgina o'tgan yilda "B", "BC", "CE" hamda "D" toifalarida 410 nafardan ziyod haydovchi mutaxassis tayyorlandi. Shuningdek, 65 nafar traktorchi, 5 nafar elektropayvandchi tayyorlandi. Shuningdek, yuz nafarga yaqin haydovchining malakasi oshirildi.

Joriy yilda ham bu boradagi ishlar davom ettirilmoqda. Buning uchun tashkilot yetarli darajada o'quv-moddiy bazaga ega. Bu esa, o'z navbatida, malakali haydovchilar yetkazib berish imkoniyatini oshirmoqda.





# SE P



Qizimni uzatishim kerak. Anchadan beri yig'inaman. Kechqurun akasi ham yig'ib yurgan pulidan birmuncha berdi. Otasi aliment to'lashdan qutulgan kundan beri qorasini ko'rsatgani yo'q. Qizim o'ksinmasligi uchun "Otang senga palto olishim uchun pul berdi, saharlab bozorga chiqamiz", dedim. Hayron bo'ldi. Ishonmayotganini sezdim. Yashirishga uringanim bilan sobiq erim arzimagan aliment uchun ko'rsatgan tomoshalarga guvoh bo'lib qolgan. O'shanday paytlari ko'zlari javdirab turgan qizimga tushuntirishga uringanman: "Otangiz pulini sizdan emas, mendan qizg'anyapti, sizni g'amingizni yeb, g'avg'o qiladi". Nima bo'lganda ham shu ikki bolaning otasi, undan nafratlanib katta bo'lishlarini istamadim.

Bayramdan keyingi kunlar bo'lgani uchunmi yo'lovchi transportda odam kam edi. Qizim bilan orqada bir qator to'rt kishilik joyning eng chekkasiga borib o'tirdik. Yoshi yetmishlar atrofidagi er-xotin ham yonimizga joylashdi. Keksa ayol bir ko'zi boshi aralash bog'langan qariyaning boladek u yer-bu yerlarini to'g'rilab qo'ydi. Kattagina oq sumkani o'z qo'lga oldi. Gappa tutgim keldi.

- Kasalxonadan chiqdingizlarmi?  
- Ha, cholimning ko'zini operatsiya qildirdik.

- Qiynalmadingizmi? Eraklar xastalansa, injiq bo'lib qolishadi, - dedim eri tomonga ishora qilib.

Ayol kulimsirab, "qo'yaverasan, endi..." degandek boshini silkitib qo'ydi.

Yetarli odam yig'ilganidan so'ng "marshrutka" qo'zg'aldi. Haydovchi yo'l haqini yig'ib berishimizni so'radi. Qizim ikkimizga to'ladim. Picha fursat o'tar-o'tmas, haydovchining norozi ovozi salonni tutdi:

- Ikki kishi qoldi yo'lkira bermagan.

Hamma jim. Haydovchi ovozini balandlatdi:

- Shu ikki kishi to'lama, yo'l chekkasiga o'tib, yurmay turaveramiz.

- Pensioner qariyalar yo'l haqi to'lamaydi, - dedi qariya.

Uni eshitib haydovchining jon-poni chiqib ketdi. "Uvv...", deya endi boshlagan edi:

- Mana, mana, yana ikki kishi uchun, - deb shosha-pisha pul uzatdim, haydovchi ko'ngilni xira qiladigan bir gap aytmasligi uchun. Yo'lkirani kekxa er-xotin bermaganini o'sha zahoti anglagan edim. Ular arzimagan yo'lkira uchun izza bo'lishlarini istamadim. Qariya atay pul bermaslik uchun aytdimi yoki shunchalar go'lmi, bilolmadim. Xotini qoshlarini chimirib, u tomonga egildi-da, so'radi:

- To'lovdan bir oz pul ortgan edi-ku, qani o'sha pul?

Qariya bir nimalar deb ming'illadi. Anglaganim shuki, ular "Ippodrom" bozoridan yana qaysidir tumanga ketishlari kerak.

Kampir menga o'girilib rahmat aytdi. Xijolat tortayotganini sezdim. Chol ham bir ko'zi bilan meni qidirib, minnatdor bo'lib duo qildi. Ikki kekxa odamning arzimagan ish uchun minnatdor bo'layotganidan o'zim ham xijolat tortdim. Tezroq boshqa narsaga chalg'igim kelardi. Kampir allaqanday siniqlik bilan gap boshlab qoldi:

- Bittagina o'g'lim bor. Katta qizi Diyora o'n bir yoshida xastalanib qoldi. Uni o'zim katta qilganman, "ohh", desa, undan avval meni jonim chiqqudek bo'ladi. Shu qadar nabiraman sevaman. Bu saraton o'lgurning og'rimay kelishi yomon ekan. G'afatda qoldirishi tayin ekan. Uzoq davolandi. Tekin emas, albatta. O'g'limning yosh ro'zg'ori shipshiydam bo'ldi. Biz ham qarab turganimiz yo'q, eshikdagi mollarning hammasini sotdik. Ora-sira ammalari qo'llaridan kelganicha yordam berib turdi. Uyg'a ruxsat berilgan kunlari yonimda olib yotaman. Menga qattiq bog'lanib qoldi, negadir onasiga intilmay qo'ydi. Kelinim ham charchaydi, xasta bolaga qarashning o'zi bo'lmaydi. Bir kuni oqshom buvinabira uzoq gaplashib qoldik. Negadir uxlashni xohlamadi.

- Buvijon...

- Nima deysan, buving o'rgilsin, nega jim bo'lib qolding?

- Buvijon, men baribir o'lar ekanman...

Jon-ponim chiqib ketdi.

- Kim, kim aytdi buni senga?

- Ayam bilan dadam

gaplashayotganlarini eshitib qoldim.

Ikkovi ham yig'lashdi...

- Sen noto'g'ri eshitgansan, ularni

boshqa narsa xafa qilgan.

- Buvijon, o'lgim kelmaydi,

qabristondan qo'rqaman, o'lishni

istamayman, - shunday deb mahkam

bo'ynimdan quchoqlab oldi.

Ado bo'lay dedim, Xudojon, bu

qanday sinoving, deb ko'zyoshimni

ichimga oqizib, nola qildim. Yuragimni

yondirayotgan faryodni arang bosdim.

Bag'rimdagi qizaloq eshitmasin,

dedim...

- Bolaginam, erka qizim, tirik

ekanman, seni o'limga osongina

topshirib qo'ymayman, - dedim

sochsiz boshini silab. - Sen o'lmaysan,

uzoq yashaysan, bolalar do'xtiri bo'lmoqchisan-ku, hali qancha qiladigan ishlaring bor, og'ritmaydigan ukol, ichganda maza qiladigan shirin dorilar o'ylab topmoqchi eding, unutdingmi?

- Rostdan, o'lmaymanmi, a?

- shu savol bilan menga umid bilan termilgan ko'zlarini hech unutmayman.

- O'lmaysan...

O'sha kundan boshlab ellik yil davomida qurgan ro'zg'orimda neki qiymatli narsa bor, barini sotdim. Daraxtlarimni ham sotdim. Tomorqamning bir qismini qo'shnimga sotmoqchi edim, sababini bilganidan keyin olmadi. Belgilangan bahoda pulni shundoq bergan edi, ko'nmadim, bu qarzni qaytarguncha bormanmi-yo'qmanmi, dedim. Garovga deb oling, yer qochib ketmaydi, dedi, qo'limga tutqazdi o'sha pulni... Yaxshilar bor bo'lsin. Shukur, Diyoram o'nglana boshladi, ko'z tegmasin, kasalxonama-kasalxona sarsonliklarim orqada qoldi. Shunday deb, sevinib yursam, cholimga bu dard yopishdi. Og'riqdan kechalari azob chekib, ingrab chiqadi. Yana Toshkentga keldik, vaqtida kelibsizlar, deyishdi. Yana vaqti-vaqti bilan kelib, ko'rinib turishi kerak.

Shularni gapirib kampir chuqur uf tortdi. Yuragim g'alati bo'lib ketdi. Ko'zlarida charchoq, lablari quruqshab, oqarib ketgan... Ertalab bir piyola choy ham ichmagani bilinib turibdi.

Gap bilan bo'lib g'ala-g'ovur bozorga yetib kelganimizni bilmay qolibman. Hamma baravariga tapirtupur qilib, o'zini eshikka urdi, xuddi ichkarida qolib ketadigandek. Men ham qizim bilan odamlar oqimiga ergashdim. Chol-kampir xayolimdan ketmasdi, ayniqsa oyoqlarini uzatib, farzandlar ardog'ida o'tirishi kerak bo'lgan ona, fidokor bir jon... Yuragimga tosh bog'langandek... bunday odamlar kammi, deya o'z-o'zimga tasalli bermoqchi bo'laman, bozor izdihomida rahmatli onamning ovozi eshitilgandek bo'ladi: "Hahh, onani yaratmasin ekan-yeyy!.." Ortiq chidolmadim, qizimni qo'ldan tutdim-da, orqaga intildim. Ana, ana ular, boshi egilgan, chumchuqdekkina bo'lib turibdi mashinalar oldida.

- Opa, - dedim qovjiroq, sertomir qo'llaridan tutib, - mana bu pulni oling, avval oshxonaga kirib ovqatlanib oling, qarang, hamma tomonda oshxonalar, keyin yo'lga chiqing. Bu pul yo'lingizga ham yetadi, yetadi, a, yetmasa, ayting, yana qo'shaman.

- Yetadi, yetadi, - dedi titroq ovozda pulga qaramasdan, qo'llarimni mahkam tutib, - faqat nima uchun bunday qilyapsan, meni hatto tanimasang?..

- Fidokorginam, o'zingizni ehtiyot qiling, nabirangizning ota-onasi bor, eringiz erkak odam, o'zingizni ham o'ylang, yaxshi yetib olinglar!..

Shosha-pisha yana ortimga qaytdim. Kampirning hayrat va minnatdorlik to'la nigohlarini qaramasam ham his qildim. Shu payt ko'zim qizimga tushdi. U menga jimgina tikilib turardi. Yuragim "shuv" etib ketdi. Nima qilib qo'ydim? Paltoga pulim yetmay qolsa-chi? Menga kim qo'yibdi bировga muruvvat qilishni?.. Ammo shu ishni qilmasam, o'zimni kechira olmasdim-da.

- Qizim...

- Oyijon, o'zingizni qiynab, yolg'on gapirmasangiz ham bilaman, dadam hech qanaqa paltoga pul berganlari yo'q. Hali sovcilar kelarmish, degan gapni eshitiboq, "Mendan bir so'm pul domangir bo'lmalaring", deb telefon qilgan edilar.

Muzlab ketdim. Bu odam... indamay o'tirsa bo'lmaskan... Qizim holimga parvo qilmasdan, davom etdi:

- Kuyov bo'lmishingiz sizni qiynamasligimni tayinladilar. Oyog'imda bittagina shippakda borsam ham ota-onasi bag'rilarini ochib kutib olarmishlar. Siz men uchun ham, kuyov bo'lmish uchun ham eng katta va bebaho sepnini allaqachon qilib qo'ygan emishsiz. Ya'ni mendek qizni voyaga yetkazib, o'qitib...

- Assalomu alaykum, - qarshimda "tasodifan" chiqqan kuyov bo'lmishim turardi. Mana, nega qizim jim bo'lib qolgan ekan. Salomlashdik.

- Sizlar ham bozorga chiqqan ekansiz-da, tasodifni qarang, - dedi jilmayib. Ikkimiz ham bir-birimizdan xijolat bo'layotgandek. Qizim loladek qizarib ketibdi.

- Mayli, bora qolay, do'stlarim kutib turibdi, - dedi shuning uchun darrovgina xayrlashib va qizimga mehr bilan qarab, hazillashdi, - siz, bozorda adashib qolmang tag'in. Kulishdik. Va shu lahza kuyov bo'lmishim chaqqonlik bilan qizimning cho'ntagiga bir dasta pul tiqdi. Kelin bo'lmish battarroq qizardi. Bir nima deyishga ham ulgurmadim.

Ko'zlari porlab turgan qizimga qarab, yelkamdan tog' ag'darilgandek bo'ldi.



# O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida fuqarolar, harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar ishchi-xizmatchilariga

## MUROJAAT

Barchangizga ma'lumki, mamlakatimizning rivojlanishi va dunyo hamjamiyatida muhim o'rin tutishida korrupsiyaga qarshi kurashish ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyundagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-sonli qaroriga asosan, Mudofaa vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi tashkil etilgan.

Mudofaa vazirligi tizimida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

### Xususan:

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tashkil etildi.
- Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti, mudofaa vazirining manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi buyrug'i va shu kabi bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda amaliyotga joriy etildi.
- Korrupsion holatlar haqida ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta manzillari, rasmiy veb-sayt va ishonch telefoni orqali uzluksiz xabar berish tizimi yo'lga qo'yildi.

### Hurmatli safdoshlar!

Mudofaa vazirligi tizimida harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar ishchi-xizmatchilari tomonidan qonun buzilishiga doir holatlar yoki ijtimoiy soha obyektlarida noqonuniy harakatlarni bilsangiz, ko'rsangiz yoki guvohi bo'lsangiz, zudlik bilan ichki nazorat bo'limining quyidagi telefon raqamlari: (71) 269-81-51, (71) 269-81-67, (97) 140-48-44, (97) 770-34-43 va telegram bot (93) 482-11-23 hamda KQINB@mail.uz elektron manzili va 61-67, 61-51 qisqa raqamlar tizimi orqali xabar berishingizni so'raymiz.

### Murojaatlar to'g'risidagi ma'lumotlar sir saqlanishi kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-sonli qaroriga asosan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar (*jinoyat*) haqida kechiktirmasdan xabar bergan, jumladan pora olishdan bosh tortgan holda xabar bergan shaxslar **asosiy lavozim maoshining besh baravari miqdorida**; korrupsiyaga oid jinoyatni tergov qilish hamda fosh etishda, ahamiyatga ega bo'lgan dalillar haqida xabar bergan yoki bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda bevosita ko'maklashgan shaxslar **asosiy lavozim maoshining uch baravari miqdorida mukofatlanadi**.

Bundan keyin ham Mudofaa vazirligi korrupsiyadan xoli tizim bo'lib qoladi va barchamiz bu kabi illatlarga doim qarshi turamiz.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi  
korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi

KORRUPSIYA, RAG'BATLANTIRISH TURLARI  
HAMDA JAZO MUQARRARLIGI TUSHUNCHASI

### KORRUPSIYA O'ZI NIMA?

- ✓ "Korrupsiya" so'zi lotincha "corruptio" so'zidan olingan bo'lib, "buzish, sotib olish", degan ma'noni bildiradi
- ✓ Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi

### UNUTMANG!

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-sonli qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167-moddasi 2-qismi "g" bandi, 168-moddasi 3-qismi "v" bandi, 192-9 va 192-10, 205, 209-214-moddalari hamda 301-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar korrupsiyaga oid jinoyatlar hisoblanadi

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar (*jinoyat*) haqida kechiktirmasdan xabar bergan, jumladan pora olishdan bosh tortgan holda xabar bergan harbiy xizmatchi, ishchi va xizmatchilar asosiy lavozim maoshining besh baravari miqdorida

Korrupsiyaga oid jinoyatni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo'lgan dalillar haqida xabar bergan yoki bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda bevosita ko'maklashgan harbiy xizmatchi, ishchi va xizmatchilar asosiy lavozim maoshining uch baravari miqdorida rag'batlantiriladi

### JAVOBGARLIK VA JAZO

- ✓ Bugungi kunda pora olish, pora berish va vositachilik qilish jinoyatlari (Jinoyat kodeksining 210, 211 va 212-moddalari) uchun amalda eng yuqori 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan
- ✓ Hozirgi kunda 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bor
- ✓ Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyi jazoni o'tashda yengillashtiruvchi normalar qo'llanilishiga cheklovlar mavjud

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI  
KORRUPSIYAGA QARSHI ICHKI NAZORAT BO'LIMI

### ESLATMA!

Porani yaqin odamingiz orqali berishadi va siz qamoqdasiz!

Hech kim andisha qilmaydi!

"Oxirgisi, boshqa olmayman!" demang, tadbir bo'lishi mumkin

"Mening olayotganimni hech kim bilmaydi, shuncha olganimda qo'lga tushmadim-ku!" demang, tadbir bo'lishi mumkin

"Shunchasi olyapti-ku, men olsam, nima qilirdi?" demang, tadbir bo'lishi mumkin

"Yaqin do'stim yoki qarindoshim orqali olyapman-ku, ular meni ushlab bermaydi" demang, porani begonadan olmaysiz-ku, yaqin odam sotadi

Qo'lga tushganingizda kech bo'ladi, aniq afsuslanasiz! "Olmamam bo'larkan..." deysiz

Oilangizni ko'z oldingizga keltiring. Siz panjara ortida bo'lganingizda ularning holi ne kechadi?

### Korrupsiya haqida xabar bering

- 📍 Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani  
Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 100-uy.
- 📞 Iшонch telefoni: (71) 269-83-80; 63-80
- ✉ Elektron manzil: KQINB@mail.uz
- 📞 Ichki nazorat bo'limi: (71) 269-81-51;  
(97) 140-78-44; (71) 269-81-67; (97) 770-34-43
- 📠 Telegram: (93) 482-11-23



SHU SONNING  
ELEKTRON SHAKLI

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati  
bilan bog'lanish uchun telegram bot



VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

#### Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.  
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan  
farqlanishi mumkin.  
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
departamenti – "Vatanparvar" birlashgan  
tahririyatining kompyuter markazida  
sahifalandi.

#### Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida 2008-yil  
6-iyunda 0535 raqami bilan  
ro'yxatga olingan.

#### Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50  
buxgalteriya: 71 260-35-20  
yuridik bo'lim: 71 260-29-41  
faks: 71 260-32-29

#### Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov

Sahifalovchi: Nodirabegim Ne'matova  
Musahhih: Sayyora Meliqo'ziyeva

Buyurtma: V-5695  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 34 777 nusxa  
Bosishga topshirish vaqti: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani  
rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop  
etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq  
boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,  
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:  
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz  
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya